

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

«Himoyaga tavsiya etildi»

«Kasb ta'lifi» kafedrasi mudiri, p.f.n.
dots. _____ Suyunov O.J.

«17» may 2017 yil

Nº 15 sonli bayonnomasi

TURSUNOV ELBEK MANSUROVICH

**“SARF XARAJATLAR VA FOYDA” MAVZUSINI O’QITISHDA
GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISHNING
AFZALLIKLARI (SAMARQAND BANK KOLLEJI MISOLIDA)**

5111017 – «Kasbiy ta'lif: Iqtisodiyot»

ixtisosligi uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

ass o'qit. I.H.Nasimov

Samarqand – 2017

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I Bob. “Sarf xarajatlar va foyda” mavzusini o’qitishning nazariy asoslari.....	6
1.1. Sarf xarajatlar va foyda to’g’risida umumiyl tushuncha va uning tavsiflanishi.....	6
1.2. Sarf xarajatlar va foyda turlari va ularning iqtisodiy mazmuni.....	13
1.3. Iqtisodiy fanlarni ilg’or pedagogik texnologiyalar bilan o’qitishning uslubiy jihatlari.....	28
II Bob Iqtisodiy fanlarni o’qitishda “Sarf xarajatlar va foyda” mavzusini o’qitishda grafik organayzerlaridan foydalanishni takomillashtirish yo’llari.....	41
2.1. “Sarf xarajatlar va foyda” mavzusini o’qitishda grafik organayzerlarini qo’llashning afzalliliklari.....	41
2.2. “Sarf xarajatlar va foyda” mavzusini o’tishda “Klaster” va “Venn diagrammasi” grafik organayzerlaridan foydalanish va uning tahlili.....	53
2.3. Ta’lim texnologiyalarini joriy etishda xavfsizlikni ta’minlash holati va majburiyatlar.....	62
Xulosa.....	68
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	72

Kirish

Mavzuning dolzarbliji: Bugungi kunda respublikada olib borilayotgan siyosatning ustuvor vazifalaridan biri mamlakatimiz kelajagi bo’lgan yoshlarni har tomonlama etuk, bilimdon, jismonan sog’lom, ma’naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgan. Xususan, ta’lim tizimida olib borilayotgan va hozir izchil davom ettirilayotgan islohotlar zamirida bu buyuk maqsadga intilishni ko’rish mumkin.

Hozirda tez o’sib borayotgan global axborotlashgan jamiyatda, ta’lim muassasalarida reproduktiv ta’limdan shaxsni har tomonlama rivojlantiradigan ta’limga e’tibor kundan-kunga ortib bormoqda. Zamonaviy ta’lim muassasasidagi o’quv jarayonining asosiy vazifasi – bu o’qitish sifatini yuqori pog’onaga ko’tarish bo’lsa, buning uchun, avvalo, yangi pedagogik texnologiyalarni muntazam ravishda shakllantirmoq zarur.

Ta’lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlarning xsusan Ozbekiston Respublikasi Prizidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “Harakatlar strategiyasi”da ta’limga shunday urg’u bergan “Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo’naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish¹” Ushbu yo’nalishlarda islohotlarning bosh harakatlanuvchi kuchi – maktabgacha ta’lim muassasalarining qulayligini ta’minlash, umumiy o’rta ta’lim, o’rta maxsus va oliy ta’lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Talimga berilayotgan e’tibor o’quvchi yoshlarda nafaqat bilim va ko’nikmalarni shakllantirish, balki ularning keyingi ish faoliyatları uchun zarur bo’lgan keng va

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. Toskent shahri 2017-yil 17-fevral

teran fikrlash, tanqidiy mushohada, chuqur mulohaza, kuchli xotira, o’z jamoasini etaklay olish, jamoasi bilan hamkorlikda ish olib borishga o’rganish, ularni himoya qila olish, ijodiy fikr yuritish, mantiqiy dunyoqarash, o’z qarashlarini erkin va ochiq bayon eta olish, fikrlash faoliyatini jadallashtirish va uzoqni ko’ra olish, yangiliklarga intiluvchanlik, izlanuvchanlik ruhi va boshqalarni ham undash kabi xislatlarni shakllantirishdagi hissasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi: Iqtisodiy fanlarni o’qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar, jumladan grafik organayzerlardan foydalanishning samaradorligini aniqlash, ta’lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishning nazariy, amaliy va metodik jihatlarini o’rganishdir. Ushbu tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, tadqiqot ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- mavzuga doir adabiyotlarni o’rganib chiqish;
- ta’lim tizimiga joriy etilayotgan barcha zamonaviy texnologiyalarni tahlil etish va tizimlashtirish;
- yangi pedagogik texnologiyalar, jumladan grafik organayzerlarni qo’llashning amaliy metodik jihatlarini tadqiq etish;
- yangi pedagogik texnologiyalar va ularni ta’lim-tarbiya jarayonidagi o’rnini aniqlash.

Tadqiqot ob’ekti: Samarqand bank kollejining ta’lim jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Kasb-hunar kolleji va akademik litseylarda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali o’qituvchi va o’quvchi hamkorligini amalga oshirishda samarali va kafolatlangan ta’lim natijasiga erishish, yangi pedagogik texnologiyalar, jumladan grafik organayzerlarni qo’llashning amaliy va metodik jihatlarini ko’rsatib berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati shundaki, kasb hunar kollej va akademik litseylarda sarf xarajatlar va foyda mavzusi bo’yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarni joriy etilishi va ta’lim samaradorligini oshishiga imkoniyat yaratadi. Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati keltirilgan nazariy ma’lumotlarni “iqtisodiyot nazariyasi” va “mikroiqtisodiyot” fanlaridan

dars o'tish jarayonida hamda o'quv adabiyotlarini yangi avlodini yaratishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish kirish, 2 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I .Bob. “Sarf xarajatlar va foyda” mavzusini o’qitishning nazariy asoslari

1.1. Sarf xarajatlar va foyda to’g’risida umumiy tushuncha va uning tavsiflanishi

Milliy iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish birlklari (korxona) o’z faoliyati natijalaridan ko’proq daromad olishga xarakat qiladi. Har qanday korxona nafaqat o’zining tovarini ancha yuqori baxolarda sotishga, balki maxsulot ishlab chiqarish va uni sotishga qilinadigan sarf-xarajatlarni kamaytirishga ham intiladi.

Inson hayot keshirishi uchun moddiy ne'matlar va xizmatlar taqozo qilinadi. Moddiy ne'matlar yaratish o'z navbatida xarajat qilishni taqozo etadi. Har bir korxona, firma, (xo'jalik sub'ektlari) tovar ishlab chiqarish uchun ma'lum iqtisodiy resurslar xarajatini talab etadi. Iqtisodiy xarajatlar tushunchasini eng avollo resurslar cheklanganligini hamda ularni muqobil (alternativ) ishlatish imkonи bilan bog'liq. Masalan, yer resurs sifatida cheklangan. Undan turli maqsadda foydalanish mumkin. Uy qurish, korxona qurish, turli ekinlar ekish va h.k. Har bir xo'jalik sub'ekti u yoki bu resursni sotib olib ishlatar ekan, demak bu resursni boshqalar ishlata olmaydi. Resurslarni sotib olgach uni samarali ishlatish uchun harakat qiladilar. Xarajatlar korxona, firma faoliyatiga baho berishda, yetakchi ko'rsatgich hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish birlklari (korxona, firma) o'z faoliyati natijalaridan ko'proq daromad olishga xarakat qiladi. Har qanday korxona nafaqat o’zining tovarini ancha yuqori baholarda sotishga, balki mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga qilinadigan sarf-xarajatlarni kamaytirishga ham intiladi.

Tovarlarni sotish baholari asosan korxona faoliyatiga bog'liq bo'limgan tashqi sharoitlar bilan belgilansa, ishlab chiqarish sarf-xarajatlari korxonaning ishlab chiqarish va tayyor tovarlarni sotish jarayonlarini tashkil qilish samaradorligi darajasiga bog'liq. Lekin har qanday tovarni ishlab chiqarish va sotish uchun ma'lum sarf xarajatlar talab etiladi. Korxonalar faoliyat yuritish jarayonida moddiy va pul xarajatlarini sarflaydilar. Korxonaning umumiy xarajatlari ishida ishlab chiqarish xarajatlari eng katta salmoqqa ega. Ishlab

chiqarish xarajatlari majmuasi korxonaga mahsulot ishlab chiqarish qanchaga tushishini ko'rsatadi, ya'ni mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladi.

Korxonalar, shuningdek, mahsulotni sotish bo'yicha xarajatlarni, ya'ni ishlab chiqarishdan tashqari yoki tijorat (tashish, qadoqlash, saqlash, reklama qilish va hokazo) xarajatlarini ham amalga oshiradilar.

Mahsulot (ish, xizmat) tannarxini tashkil qiluvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra, quyidagi elementlarga asosan guruhlarga taqsimlanadi:

- ❖ moddiy xarajatlar;
- ❖ asosiy fondlar amortizasiyasi;
- ❖ mehnatga xaq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;
- ❖ ijtimoiy ehtiyojlarga mo'ljallangan xarajatlar;
- ❖ boshqa xarajatlar.

Moddiy xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarining eng katta qismi bo'lib, umumiylar xarajatlarning 60 - 80 foizini tashkil qilishi mumkin. Moddiy xarajatlar o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- ❖ xom ashyo va materiallar xarajatlari;
- ❖ texnologik maqsadlar va xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanuvchi yoqilg'i va energiya;
- ❖ xarid qilinuvchi butlovshi qismlar va yarim tayyor mahsulotlar;
- ❖ sotib olingan qadoqlash va o'rov materiallari xarajatlari;
- ❖ mashina va asbob-uskunalarini ta'mirlash uchun ehtiyyot qismlar;
- ❖ boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan ishlab chiqarish xizmatlari;
- ❖ xizmat davri bir yangicha bo'lgan kichik qiymatli va tez eskiruvchi predmetlarning eskirishi
- ❖ yoki har bir instrument, inventar, laborotoriya uskunalarini va maxsus kiyimbosh uchun eng kam oylik
- ❖ ish haqining 50 baravar miqdorigasha qiymati;
- ❖ tabiiy xom ashydadan foydalanish bilan bog'liq soliq, yig'im va boshqa to'lovlar;

- ❖ ishlab chiqarishda bekor turib qolish va sifatsizlik (brak) tufayli yuzaga keladigan yo'qotishlar;
- ❖ tabiiy yo'qotishlar bilan bog'liq bo'lgan yoki aybdor shaxslar mavjud bo'lmanan holda yuzaga keladigan yo'qotishlar.

Korxona faoliyatiga baho berilganda, eng avvalo mehnat faoliyatining biron bir turiga ixtisoslashgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga sarf qilingan xarajatlar, hosil qilingan daromad va olingan foyda miqdoriga e'tibor qaratiladi.

Korxonalarda tovar va xizmatlarni sotishdan olingan mablag'lar hamda ularning **pul tushumlari yoki pul daromadlari** deyiladi.

Korxona pul daromadlaridan sarflangan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi **foyda yoki iqtisodiy foyda** deb yuritiladi. Foydaning tarkib topishi ikki boshqichdan o'tadi.

Birinchi boshqichda foyda ishlab chiqarish jarayonida yalpi qiymatning yaratilish chog'ida vujudga keladi. Yangidan yaratilgan qiymat tarkibidagi qo'shimcha qiymat foydaning asosiy manbai hisoblanadi, biroq u hali aniq foyda shaklida namoyon bo'lmaydi.

Ikkinci boshqichda ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan foyda tovarlarni sotgandan so'ng olingan pul daromadi bilan xarajatlarning farqi ko'rinishda to'liq namoyon bo'ladi.

Demak, tovar va xizmatlar sotilganda ularning umumiyligi pul daromadlariga, undagi qo'shimcha qiymati esa foydaga aylanadi. Bundan ko'riniib turibdiki, foydaning haqiqiy manbayi **qo'shimcha mahsulot yoki qo'shimcha qiymatdir**.

$$Fish = Hy - T \quad (1)$$

Ishlab chiqaruvchi foydasi (Fish) – bu maxsulot tannarxi (T) va ulgurji narxi (Hy) o'rtaqidagi farqdan iborat.

Ushbu formuladan ko'rindik, mahsulot birligidan olinadigan foyda ikkita asosiy omilga bog'liq bo'ladi:

1. Mahsulot tannarxi darajasi ($s + v$);
2. Ulgurji narxlar darajasi.


Tannarx – bu mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarning puldagi ifodasıdır: $s + v + m > s + v$.

Tannarx bu mahsulot qiymatidan kichikdir. Mahsulot qiymati (MQ) o’z ichiga sarflangan ishlab chiqarish vositalari qiymati (Qiv), hamda yangidan yaratilgan qiymatni (Qya) to’liq oladi.


Demak,

$$MQ = Qiv + Qya \quad (2)$$

O’z navbatida yangidan yaratilgan qiymat ish haqi (IH) yalpi foydaga (Fya) ajraladi:




Foya miqdoriga ta’sir ko’rvuchi ikkinchi omil – korxona o’z maxsulotlarini sotuvchi narx darajasi bo’lib, bu o’rinda mahsulot narxi. Qiymati va tannarxi o’rtasidagi nisbatning beshta asosiy holatini ajratib ko’rsatish mumkin:




Bu chizmada tovar qiymati va narxining nisbati tasvirlanganligini ko’rsatish mumkin. N1, N2, N3, N4 va N5 larni holatini tannarx va foydaga nisbatan ifodalab berish mumkin.

Korxona yalpi foydasining taqsimlanishi ham chizmada tasvirlash mumkin:



Buxgalteriya foydasi sotilgan mahsulot uchun tushgan umumiy pul summasidan ishlab chiqarishning tashqi xarajatlari chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.



Bu chizmada umumiy pul tushumi tarkibidagi iqtisodiy va buxgalteriya foydasining farqlanishi ko'rsatilgan.

Korxona foydasining mutlaq miqdori uning **massasini** tashkil qiladi. Foya massasining ishlab chiqarish xarajatlariga nisbati va uning foizda ifodalanishi **foyda normasi** deyiladi. Foya normasining hisoblashning amaliyotda ikki variantidagi foydalilanadi. Bular foydaning joriy sarflarga – korxona xarajatlariga yoki avanslangan mablag'larga (asosiy va aylanma kapital) nisbatidir. Bular quyidagicha aniqlangan.

1. $P' = W \times 100\% (3)$.

Bu yerda: P' - foyda normasi; P - foyda massasi; W – ishlab chiqarish xarajatlari.

2. $P' = \text{Kavans} \times 100\% (4)$.

Bu yerda: P' - foyda normasi; P - foyda massasi; Kavans (asosiy kapital + aylanma kapital) – korxona avanslangan mablag'lari yoki asosiy va aylanma kapitalning o'rtacha yillik qiymati.

Foyda normasi ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi to'g'ri mutanosib hamda ishlab chiqarish xarajatlari yoki avanslangan mablag'lar qiymatiga teskari mutanosibdir. Shu tufayli foyda normasi korxona ish samaradorligining integral ko'rsatgichi hisoblanadi.

Foydaning o'sishiga, chiqarilayotgan mahsulot umumiylajmi o'zgarmagan holda ikki yo'l bilan: yoki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga, yoki narxni oshirish hisobiga erishish mumkin.

1.2. Sarf xarajatlar va foyda turlari va ularning iqtisodiy mazmuni

Iqtisodiyotning har qanday subyekti xarajat qilmay turib o'z faoliyatini yurgiza olmaydi. Lekin bu xarajatlar turlicha. Xonodon xarajatini oladigan bo'lsak, u iste'molga ketganidan keyin qaytarilib olinmaydi. Xuddi shuningdek, davlat xarajatlari xam qaytib kelmaydi, chunki u davlat iste'molini qondiradi. Ammo bundan davlat korxonalari, firmalarning xarjati bundan mustasnodir. Firmaning xarajatining o'ziga hosligi shundan iboratki bu o'rni qoplanadi, ya'ni tovar va xizmatlar sotilgach unga qaytib pul shaklida keladigan xarajatlardir. Firma qilgan **bir yo'la** xarajat uning o'z ishiga qo'ygan kapitalidir. Bu ishlab chiqarish jarayonida joriy xarajatlarga aylanadi. Demak, firma xarajati, bu uning kapitalining sarflanishi hisoblanadi. Xarajatsiz daromad topib bo'lmasligi bu iqtisodiyotning aksiomasıdır. Daromad olish uchun firma, alohida bir shaxs, barcha subyektlar xarajat qilishi muharrar., chunki bu ishlab chiqarish resurslarini talab qiladi. Resurslar esa albatta ehson yoki suvtekin emas, ularni faqat bozor narxida sotib olish mumkin. Shu bois xarajat qilish bu firma uchun foyda olishning asosiy sharti, bo'g'iniga aylanadi. Firmaga qo'yilgan kapital ishlab chiqarish jarayonida joriy, kundalik, oylik va privovardida yillik xarajatlariga aylanadi.

Qisqacha qilib aytganda, **firmaning xarajati - bu tovar va xizmatlar yaratish va ularni sotish bilan bog'liq bo'lgan sarflardir**. Firmaning xarajatlari safiga biz firmanın ishlab chiqarish xarajatlarini kiritishimiz mumkin.

Ishlab chiqarish xarajatlari deganda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va istemolchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha sarflar tushuniladi. Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari tarkibiga xom ashyo, asosiy va yordamshi materiallar, yonilg'i va energiya uchun qilingan xarajatlar, asosiy kapital amortizasiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalari, foiz to'lovleri va boshqa xarajatlar kiradi. Ishlab chiqarishga qilingan barcha sarf-xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlarini ikkiga bo'lib o'rganish mumkin:

-bevosita ishlab chiqarish xarajatlari

-muomala xarajatlari


(1-chizma). Tovar birligining qiymatida ishlab chiqarish xarajatlari faqat uning bir qismini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari tovar qiymatidan foyda miqdoriga kam bo'ladi. Muomala xarajatlari tushunchasi tovarlarni sotish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, shu tovarlarni ishlab chiqaruvchidan olib, istemolchiga yetkazilguncha ketadigan sarflarga aytiladi.

Ular ikki guruxga bo'linadi:

-qo'shimcha muomala xarajatlari

-sof muomala xarajatlari.

Tovarlarni o'rash, qadoqlash, saralash, transportga ortish, tashish va saqlash xarajatlari qo'shimcha muomala xarajatlari hisoblanadi. Muomala xarajatlarining bu turlari ishlab chiqarish xarajatlarining davomi hisoblanib, tovar qiymatiga kiradi va uning qiymatini oshiradi. Xarajatlar tovarlar sotilgandan keyin olingan pul tushumi summasidan qoplanadi.



1-chizma. Xarajatlarning namoyon bo'lish sohasiga ko'ra turkumlanishi.

Sof muomala xarajatlari sotuvchi maoshi, marketing (istemolchilar talabini o'rGANISH), reklama va shu kabi xarajatlardan iborat bo'ladi. Sof muomala xarajatlari tovar qiymatini oshirmaydi va ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tovarni sotilgandan keyin olingan foyda hisobidan qoplanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining ikkinchi yo'nalishdagi konsepsiyalari marjinalistlar va neoklassiklar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular bu boradagi klassik nazariyalarni ham ma'lum darajada hisobga oladilar. Biroq, bu konsepsiyalarning o'ziga xos tomoni shundaki, ular ishlab chiqarish xarajatlarini tushuntirishda resurslarning cheklanganligi va ulardan muqobil foydalanish imkoniyatlaridan kelib chiqadilar.

Ma'lumki, muayyan bir resursni ishlab chiqarishning biron-bir yo'nalishi bo'yicha sarflanishi endilikda bu resursdan boshqa yo'nalishlarda foydalanish imkoniyatini cheklab qo'yadi. Shunga ko'ra, tadbirkor (yoki resurs egasi) mazkur resursni eng yuqori darajada naf keltiruvchi yo'nalishga sarflashga harakat qiladi. Iqtisodiy resurslarni eng yuqori naf olish maqsadida boshqa muqobil yo'nalishlarda ishlatalishiga yo'l qo'ymay o'ziga jalb etish uchun to'lov iqtisodiy yoki zimmasiga tushuvshi xarajat deb ataladi.

Iqtisodiy xarajatlar mikrodarajadagi iqtisodiy ko'rsatgichlardan biri bo'lib, korxona (firma) miqyosida muayyan turdag'i maqsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishning samaradorlik darajasini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Marjinalistik sarf-xarajatlar nazariyasi bo'yicha korxona ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan resurslar o'z resurslari yoki jalb qilingan resurslar bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra xarajatlar:

-ichki


-tashqi

xarajatlarga bo'linadi (2-chizma).

Tashqi xarajatlar - korxona tomonidan uchun zarur resurs va xizmatlarni tashqaridan to'lov asosida jalb etishi natijasida vujudga keladigan xarajatlardir. Bunday xarajatlarga yollanma ishchilar ish haqi, xom-ashyo va materiallar uchun to'lovlari, kredit uchun foiz to'lovlari, ijaraga olingan yer uchun renta, transport xizmati va boshqa har xil xizmatlar uchun to'lovlari kiradi. Tashqi xarajatlar to'lov hujjatlari bilan rasmiylashtiriladi, shu sababli buxgalteriya xarajatlari deb ham ataladi.

Korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan foydalanishi bilan bog'liq xarajatlar **ichki xarajatlar** deyiladi.

Bunday xarajatlar pul to'lovleri shaklida chiqmaydi. Shu sababli ichki xarajatlar darajasini baholash o'z resurslari qiymatini shunga o'xshash resurslarning bozordagi narxlariga taqqoslash orqali amalga oshiriladi.



2- chizma. Xarajatlarning jalb etilish manbaiga ko'ra turkumlanishi.

Shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatini ishlab turish uchun zarur bo'lган to'lov - normal (me'yordagi) foyda ham renta va ish haqi bilan birga xarajatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Normal foyda iqtisodiy foydadan farq qiladi. Normal foyda - bu iqtisodiy resurs sifatidagi tadbirkorlik qobiliyatini raqbatlantirib turish uchun to'lanadigan haq hisoblanadi. Agar biron-bir faoliyat turi normal foyda keltirmasa, tadbirkor bu faoliyat turi bilan shug'ullanishdan to'xtaydi va o'zining kuch-quvvatini boshqa faoliyatga sarflaydi. Sarf-xarajatlarni ichki va tashqi xarajatlarga ajratish, korxona

iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish yo'llarini qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Xarajatlarni doimiy ravishda pasaytirib borish korxona foydasini oshirishning asosiy vositasi bo`lib xizmat qiladi. Zero mahsulot bahosi tarkibining asosiy elementlari bu xarajat va foydadir. Binobarin, xarajatlar qanchalik qisqarib borsa shunga mos foyda miqdori oshib boradi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishning asosiy yo`nalishlaridan biri bu fan-texnika taraqqiyotining (FTT) yutuqlaridan oqilona foydalanishga erishishdir. FTT yutuqlaridan foydalanish mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan, xom ashyo materiallaridan yoqilg`i resurslaridan yanada to`laroq foydalanishga imkon beradi. Shuningdek, Yangi unumidorligi yuqori bo`lgan, samarador mashina, dastgoh va Yangi texnologik jarayonlar yaratilishi, uni ishlab chiqarishga joriy etish pirovard natijada korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga sharoit yaratadi. Fan-texnika taraqqiyotining XX asr ikkinchi yarmidagi o`ziga xos jihatni prensipial yangi texnologik ishlab chiqarish usuliga o`tishi bilan xarakterlanadi. Uning mavjud texnologik ishlab chiqarish usullaridan ustunligi faqat nisbatan yuqori iqtisodiy samaradorligida emas, balki sifat nuqtai nazaridan yangi moddiy nematlar va xizmatlarni ishlab chiqarish imkoniyatlaridadir. Xarajatlarni pasaytirishning asosiy yo`nalishlaridan biri bu ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning takomillashtirishdir. Ushbu yo`nalish ishlab chiqarishda yo`qotishlarni kamaytirish yo`li bilan xarajatlarni pasaytirish bu esa o`z navbatida jonli mehnatni iqtisod qilishga ya`ni ishlab chiqarish unumidorligini oshirishga olib keladi. Mutaxassislar xarajatlarga turli nuqtai nazardan turlicha qaraydilar. Buxgalterlar firmalarni faoliyatiga aktiv va passiv nuqtai nazardan baxo berib firmaning faoliyatni baxolaydi. Iqtisodchi va raxbarlar esa firmalarning kelajagi bilan qiziqqan holda xarajatlarga ishlab chiqarishni samaradorligini uzluksiz olib borish nuqtai nazaridan qaraydi xarajatlar turlicha bo`ladi. Xaqiqiy xarajatlar, maxsulot ishlab chiqarish qilingan barcha xarajatlar kiradi. Masalan: ish xaqi, amortizasiya xarajatlari va boshqalar.

Har bir korxona, firma, tadbirkor shaxs o’z ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishda bir qancha masalalarni hal qilishga to’g’ri keladi. Jumladan, qancha xom-ashyo sotib olish kerak, qancha ishchi yollash lozim, qancha ishlab chiqarish vositalari lozim va h.z. Mana shunga o’xshash masalalarni 3 guruxga taqsim etish mumkin.

1. Mavjud ishlab chiqarish quvvatlari asosida qanday qilib ishlab chiqarishni tashkil etish mumkin?
2. Fan-texnika taraqqiyotining erishilgan yutuqlariga ko’ra qanday yangi quvvatlarni jalb etish mumkin?
3. Texnika taraqqiyotiga burilish bo’ladigan yangiliklarga qanday tartibda moslashish mumkin?

Endi qisqa muddatli davrdagi firma faoliyati xarakteri to’g’risida fikr yuritamiz. Eng avvalo xarajatlar to’g’risida quyidagi tushunchalarni bilishimiz kerak:

1. **Umumiylar xarajatlar (TS)** – bu firmanın ma’lum turdagı mahsulotini ishlab chiqarish uchun qilingan jami xarajatidan iborat. Umumiylar xarajatlar ikki qismdan iborat:

umumiylar doimiy xarajat (TFS)

umumiylar o’zgaruvchan xarajatlar (TUS)

Ishlab chiqarish xajmining o’zgarishiga (qisqarish yoki ortishi) bog’lik bo’lmagan tovarlarning xajmiga ta’sir etmaydigan xarajatlar **doimiy xarajatlar** deyiladi.


Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish xajmiga bog’liq bo’lmaydi, uning o’sishiga ham bevosita ta’sir etmaydi va ishlab chiqarishning xar qanday, xatto nolinshi xajmida xam mavjud bo’ladi. Bunga korxonaning to’lov majburiyatları (zayomlar bo’yicha foiz va boshqa), soliqlar, amortizatsiya ajratmalari, ijara xaqi, qo’riqlash xizmatiga to’lov, uskunalarga xizmat ko’rsatish sarflari, boshqaru xodimlari maoshi va shu kabilalar kiradi.

Doimiy xarajat - Bular shunday xarajatlarki, ularning miqdori ishlab chiqarishning oz yoki ko’p bo’lishiga qarab o’zgarmaydi, balki qanday bo’lsa, shundayligicha qolaveradi. Masalan: tikuvchilik firmasi binoni 1,0 mln so’mga

ijaraga oldi. Bankdan 5,0 mln so'm qarz ko'tarib yiliga 1,0 mln so'm foiz to'laydi, hisobchini ishga olib oyiga 0.5 mln so'm, yiliga esa 6,0 mln so'm ish xaqi to'laydi. Bu xarajatlar jami 8 mln so'mni ($1.0+1.0+6.0=8.0$) tashkil etadi. Firma 100 ta yoki 500 ta ko'yak tikmasin, baribir shu 8.0 mln so'm xarajatni qilishi shart. Doimiy xarajatlarga odatda amortizatsiya ajratmasi, doimiy ishga olinganlarning maoshi, ijara xaqi, korxona mulkini sug'urtalash puli, bankga beriladigan foiz kabilar kiradi.

O'zgaruvchi xarajatlar - ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir qiladigan xarajatlarga aytildi. O'zgaruvchi xarajatlar ishlab chiqariladigan tovar miqdorini oshishiga yoki kamayishiga ta'sir qiladi va ishlab chiqarish xajmi o'zgarishiga bog'liklikda o'zgaradi. Unga xom ashyo, material, yonilg'i-transport xizmati, ishchilar ish xaqi va shu kabilarga qilinadigan sarflar kiradi. Ishlab chiqarishning xar bir darajasida doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar yigindisi **umumi yoki yalpi xarajatlar** ni tashkil qiladi.

Doimiy (FS), o'zgaruvchi (VS) va yalpi (TS) xarajatlarning grafikdagi ifodasini 4-chizma orqali ko'rishimiz mumkin.



4-chizma. Doimiy, o'zgaruvchi va umumi yoki yalpi xarajatlarning grafikdagi tasviri

Umumi doimiy xarajatlar mahsulot hajmini ko'payishi yoki kamayishiga qarab o'zgarmaydi.

Maxsulot birligini ishlab chiqarishga qilinadigan sarf xarajatlarni hisoblash

uchun o'rtacha umumiyligi, o'rtacha doimiy va o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar tushunchalaridan foydalanadi.

O'rtacha xarajat (AS) – firmaning mahsulot birligiga to'g'ri kelgan xarajatlardan iborat. O'rtacha xarajatni ham o'rtacha doimiy xarajatga (AFS) va o'rtacha o'zgaruvchan xarajatga (AVS) bo'lish mumkin. O'rtacha doimiy xarajat mahsulot miqdorini ko'payishi bilan doimo kamayadi va aksinsha mahsulot miqdorini, miqdorini kamayishi bilan u ko'payadi. O'rtacha o'zgaruvchan xarajat (AVS) bo'lsa mahsulot miqdorini o'zgarishi bilan ko'payadi yoki kamayadi. O'rtacha doimiy xarajatlar doimiy xarajatlarning ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi:

$$AFS = \frac{TFC}{Q}$$

Bu yerda: AFS-o'rtacha doimiy xarajat;

TFS-doimiy xarajatlar summasi.

Qo'shimcha xarajatlar (MS) – xar bir qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot birligi uchun sarflangan xarajat hisobiga umumiyligi xarajatni o'sgan qismi. Doimiy xarajat har doim o'zgarmas bo'lganligi uchun qo'shimcha doimiy xarajat xar doim "0" ga teng. Shuning uchun ham qo'shimcha xarajat – xar doim qo'shimcha o'zgaruvchan xarajatdan iborat bo'ladi.

Maxsulot birligini ishlab chiqarishga qilinadigan sarf-xarajatlarni hisoblash uchun o'rtacha umumiyligi, o'rtacha doimiy va o'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar tushunchalaridan foydalaniladi. O'rtacha umumiyligi xarajatlar yalpi (umumiyligi) xarajatlarning ishlab chiqarilgan maxsulot miqdori nisbatiga teng:


bu yerda:

AS - o'rtacha umumiyligi xarajatlar;

TS - yalpi (umumiyligi) xarajatlar;

Q - ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.

FS - doimiy xarajat



5-chizma. Umumi xarajatning tuzilishiga qarab turkumlanishi

Ishlab chiqarish samaradorligini har tomonlama oshirish iqtisodiyotni hozirgi boshqichida rivojlantirishning eng muhim xo'jalik vazifasidir. Bu vazifani hal etish maksimal foyda bergan mahsulot hajmining optimal yo'llarini tanlash bo'yicha qilinadigan ishlarni davom ettirish bilan bog'liq. Foydani maksimallashtirish to'g'risidagi taxminlar mikroiqtisodiyotda ko'p ishlatiladi.

Chunki uning yordamida korxona va firmalarning xatti-harakatlarini (faoliyatini) aniq bashorat qilish va keraksiz murakkab analitik hisoblashlardan voz keshish mumkin.

Foyda - ishlab chiqarish samaradorligining eng muhim ko'rsatgichidir. Korxonalar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida ko'rsatilishicha: Hamma turdag'i korxonalar xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalarini umumlushtiruvchi asosiy ko'rsatgich foyda (daromad)dir. Foyda (daromad) amartizatsiya ajratmalari, qimmatli qog'ozlarni sotishdan tushgan pul, mehnat jamoasi a'zolarining, korxona va tashkilotlar, fuqorolarning pay va o'zga badallari, shuningdek, boshqa tushumlar korxona moliyaviy resurslarini tashkil etuvchi manbalardir. Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limoti foydani ishlab chiqarish omillaridan, ya'ni mehnat, yer va kapitaldan foydalanish natijasida olingan daromad deb hisoblaydi. Foyda va daromad tushunchalari bir xil emas. Daromad miqdori foydadan kattadir. Foyda - daromad bilan ishlab chiqarish xarajatlar: orasidagi farq. Korxonaning xo'jalik faoliyatidan olingan daromad uning hisobiga quyidagi qismlar bo'yicha qo'shiladi:

- I. Mahsulotni sotishdan kelgan sof tushum.
- II. Asosiy faoliyat natijalaridan kelgan daromad.
- III. Moliyaviy faoliyatdan kelgan daromad.
- IV. Favqulotdagi holatlardan kelgan foyda.

Ularning tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarni «Mahsulotni (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida»gi qoplanmadan topish mumkin. Sotilgan mahsulotdan kelgan sof tushum - bu daromaddir. Mahsulot sotishdan kelgan sof tushumni aniqlash uchun (ishlar, xizmatlar) sotishdan kelgan tushumdan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksizlar qiymati, chetga chiqarilgan mahsulot solig'i kabilar ayirib tashlanadi. Xuddi shu sotilgan mahsulotdan olingan sof tushum ko'rsatgichi korxonani o'z ixtiyorida qolgan daromadini ko'rsatadi va bu daromad undan keyingi barcha

turdagi foyda ko'rsatgishlarini hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Fikrimizcha, avvalo «Sof tushum» tushunchasiga to'g'ri baho berish lozim deb hisoblaymiz. «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan, sof tushum yalpi tushumdan egri soliqlarning (QQS, aksiz solig'i, bojxona to'lovleri) formasi sifatida qaraladi. Bizningcha, bu to'g'ri emas, sof tushumga yalpi tushumdan moddiy xarajatlar ayirmasi sifatida qarash mantiqqa yaqinroqdir. Chunki xomashyo materiallarga daromad sifatida qarash noto'g'ri. QQS ayirmasi sifatidagi qiymatini korxona uchun daromad sifatida qaraydigan bo'lsak, u holda korxona foydasiga aloqasi bo'limgan davr xarajatlariga kiritiluvchi ko'plab ajratmalarni, soliqlarni ham chiqarishga to'g'ri keladi. Biz taklif etgan «sof tushum» — bu jamiyat uchun qaratilgan daromad bo'ladi, ya'ni yalpi tushumdan material xarajatlar ayirmasi sifatidagi sof tushum davlat va korxona o'rtaida taqsimlanadi va korxonaning yoki davlatning daromadiga aylanadi.

Ko'p hollarda bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda soliq yukiga baho berishda soliqlarning daromaddagi (ish haqi va foyda) ulushiga e'tibor beriladi. Fransuz iqtisodchisi A.Leffer ham soliq yuki va uning optimal variantlarini aniqlash bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarida foyda solig'ining foydadagi ulushini tadqiq qilgan. To'g'ri, «foyda» ko'rsatkichi korxona faoliyatining yakuniy moliyaviy ko'rsatgichi hisoblanadi. Korxona uchun olinadigan foyda va uning miqdoriga ta'sir etuvchi ko'rsatgichlar bilan birga foydaning qancha qismi soliqlarga ketayotgani uning kelajakdagi tadbirkorlik faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Hozirgi paytda bizda «foyda» iqtisodiy kategoriyasiga baho berish ancha qiyinchiliklarni tug'diradi. Ayniqsa, soliq yukini aniqlash maqsadida foydaning shakllanishi va uning budget va korxona o'rtaida taqsimlanishi bilan bog'liq ancha muammolarni yuzaga keltiradi. Chunki foydaning «soliqqa tortilgunga qadar bo'lgan foyda», «soliqqa tortiladigan foyda», «sof foyda» kabi ko'rsatgishlarda ifodalananadi. Yildan-yilga korxonalarda bu foydalar o'rtaidiagi farqlanish kuchayib bormoqda. Bu farq oxirgi yillarda kuchaymoqda. Bu esa korxonalarda yara-

tilayotgan foydaning past darajada ekanligidan va soliqqa tortishning yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, korxonalarni soliqqa tortish soliqlar bo'yicha og'irlik markazi korxonalar xo'jalik faoliyatini oxirgi natijasiga bog'liq qilib qo'yilmagan. Korxona foyda olish yoki olmasligidan qat'iy nazar to'lanadigan soliqlar soni va ulushi nihoyatda katta. Korxonalar foydasining yildan-yilga kamayishi natijasida davlat budjeti daromadlari tarkibida ham yuridik shaxslar daromad foyda solig'i salmog'i ham pasaymoqda.

Korxona foydasiga bogliq bo'limgan soliqlarning kopayishi natijasida respublikada yaratilgan yalpi ichki mahsulotning pirovard iste'mol sarf xarajatlari tarkibidagi moddiy aylanma vositalar zaxirasi katta miqdorda kamayishi kuzatilmoqda, ya'ni korxonalar aylanma mablag'lari chetlashib, soliq va majburiy ajratmalarini to'lash va boshqalar uchun sarflangan.

Xo'jalik yurituvchi subyekt (yurilik shaxs) faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatgichlari bilan tavsiflanadi:

1. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda. Bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tavofut, farqdir.

$$YaF = SST - IT,$$

bunda, YaF - yalpi foyda;

SST — sotishdan olingan sof tushum;

IT - sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

2. Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda — mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davriy xarajatlar o'rtasidagi tafovut va asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar va zararlar farqining yig'indisi sifatida aniqlanadi:

$$AFF = YaF - DX + BD - BZ,$$

bunda, AFF — asosiy faoliyatdan olingan daromad;

DX — davr xarajatlari;

BD — boshqa asosiy faoliyatdan olingan daromad;

BZ — asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.

3. Xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar) — asosiy faoliyatdan olingan foyda va moliyaviy faoliyatdan olingan foyda va zarar farqining yig‘indisi sifatida hisoblanadi:

$$UF = AFF + MD - MX,$$

bunda, UF — umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD — moliyaviy faoliyatdan olingan daromad;

MX — moliyaviy faoliyat xarajatlari.


4. Soliq to’languncha olingan foyda (STF) — umum xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda favqulodda kutilgan foydani qo‘shib ko‘rilgan zarar miqdorini ayirish bilan topiladi:

$$STF = UF + FF - FZ$$

bunda, STF — soliq to’languncha olingan foyda;

FF — favqulodda foyda;

FZ — favqulodda zarar.



6-chizma. Daromadni taqsimlash tartibi

Yilning sof foydasi — soliq to'lagandan keyin xo'jalik yurituvchi jubyekt ixtiyorida qoladi va o'zida daromad (foyda)dan to'lanadigan soliqni va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlangan holda ifodalanadi.

$$SF = STF - DS - BS$$

bunda, SF — sof foyda;

DS — daromad (foyda) solig'i;

BS — boshqa soliqlar va tsMovlar.

Xo'jalik yurituvchi subyektning daromad (foyda) solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza quyidagicha hisoblab chiqiladi.

Soliq to'lagunga qadar bo'lган daromad (foyda)ga «Mahsulot (ishlar,

xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomning 1-ilovasida keltirilgan buxgalteriyadagi foyda bilan soliq solinadigan foyda o‘rtasidagi doimiy tafovutlar qo‘silib, mazkur Nizomning 2- ilovasida keltirilgan xarajatlarni soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlash vaqtidagi tafovutlar qo‘shiladi yoki chegirmalar va qonunchilikka muvofiq soliq imtiyozlari chegiriladi.

Olmaota shahridagi «Alkor» mashinasozlik korxonasining moliyaviy natijalarini

Ko’rsatgichlar	O’tgan yili		Hisobot yili	
	Daromad	Xarajat	Daromad	Xarajat
Mahsulotni sotishdan kelgan tushum	245129		322946	
QQS	—	29146	—	44308
Mahsulot sotishdan kelgan sof tushum	215983		278638	
Sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi		167778		253782
Yalpi sotishdan ko'rilgan foyda	46205		24856	
Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi	47361	17104	24856	20697
Umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari	30859		7117	
Soliq to’langunga qadar moliyaviy natija	30859		7117	
Foyda (daromad)dan soliq		18056		5081
Soliq va ajratmalar		256		201
Hisobot davridagj sof foyda (zarar)	12547		1835	

Yuqorida keltirilgan ko’rsatgichlar xo‘jalik yurituvchi subyektlarning 2-shakl «Moliyaviy natijalar to‘g‘risida»gi hisobotida o‘z aksini topadi. Bu korxona sport

bilan shug‘ullanish uchun zarur bo‘lgan 20 xilga yaqin trenajyor uskunalarini ishlab chiqaradi.

Korxona ixtiyorida qolgan sof foyda quyidagi ishlarga taqsimlanadi:

- ishlab chiqarishni rivojlantirish;
- rezerv fondini yaratish;
- divedentlarni to‘lash;
- yil yakunlari bo‘yicha moddiy mukofotlar berish.

Taqsimlanmay qolgan foyda balans passivining birinchi qismi bo‘lgan «Xususiy mablag‘larni yaratish manbalari» qismining tarkibida turadi. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, korxona ixtiyorida qolgan sof foyda hisobot yilida ancha kam bo‘lgan. Sotilgan tovar mahsulotlari rentabelligi o’tgan yili 18,8 % (46205:245129)-100; hisobot yilida (24856:322946)-100=7,6% bo‘lgan, ya’ni saltak 2,5 marta past bo‘lgan. Bunga sabab mahsulot tannarxi keskin oshib ketgan, foyda tarkibidagi o‘zgarishlar qoniqarli bo‘lmagan.

Foydani, birinchidan - tadbirkorlik faoliyati uchun to‘langan haq; ikkinchidan - bu ixtirolik, foydani boshqarishdagi qobiliyati uchun to‘langan haq; uchinchidan - tavakkalshilik, hali natijasi noma’lum bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati uchun to‘langan haq deb izohlash mumkin. To‘rtinchidan - bu monopol foyda. Bunday foyda doimiy bo‘lmaydi. Bir xil foydaga har xil miqdordagi kapital hisobiga erishish mumkin. Shuning uchun, har doim ham olingan foyda miqdori hali ishlab chiqarishni samarador ekanligini ko‘rsatmaydi. Shuning uchun ham mikroiqtisodiyot ilmida — **«pirovard xarajat», «pirovard daromad», «pirovard foydalilik»** kabi ko‘rsatgichlar ishlatiladi. Ular ishlab chiqarishning haqiqiy samaradorligi darajasini, me’yorini ifodalaydi.

Pirovard daromad — mahsulot hajmini bir birlikka o‘sishi (AQ) natijasida daromadning o‘sishini AR(Q) pirovard daromad deb ataladi:

$$MR = AR - (Q)/Q.$$

1.3. Iqtisodiy fanlarni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan o'qitishning uslubiy jihatlari.

Ta'lism berish, xar bir mavzuning mag'zini talabalar ongiga yetkazish mahorati o'qituvchidan ko'p izlanishni, ko'p mutola qilishni talab qiladi. Bilim ummoniga boy bo'lgan ustozgina mavzuni mag'zini talabalar ongiga moxirona etkaza oladi. Mavzuning maqsadiga qarab, ilg'or pedagogik texnologiyalarni tanlay biladi.

Mazkur paragrafda pedagogik ilm va amaliyotida “pedagogik texnologiya”, “ta'limi texnologiya” va “ta'lism berish texnologiyasi” kabi atamalarning ma'nolarini o'rGANIB chiqdim. Shu bilan birga ularni malakaviy amaliyotimda qo'llash mexanizmini “tajriba-sinov” asosida o'tkazdim.

Sh.K.Shoyoqubov “Interfaol ta'lism usullari” kitobida: **ta'lism berish texnologiyasi** - bu mavjud sharoit va o'rnatilgan vaqtida belgilangan ta'limi maqsad va ko'zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali ta'minlovchi, muloqot, axborot va boshqaruvning eng qulay yo'l va o'qitish vositalarining tartibli yig'indisi² bo'lishi lozimligini qayd etadi.

N.F.Talizina esa **“Pedagogik texnologiya”** – pedagogik hodisa va ta'limgi texnologiyalashtirish sohasidagi jarayonda qo'llaniladigan tushuncha, bu mavjud yuzaga kelgan ta'limi jarayon sub'ektlarining hamkoriy harakatlari, haqiqiy jarayon (ta'lism berish texnologiyasining amaliy-jarayon jihat) tartibi³ deb tushunadi.

G.Axunova esa **«ta'limi texnologiya** - bu o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lism maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo'nalishdir. Ta'limi texnologiya – ta'lism olish shakllarini maqbullashtirishni o'z vazifalari deb qo'yuvchi, ya'ni butun ta'lism berish jarayonini hamda texnikaviy va

² Shoyoqubov Sh, Ayupov R. “Interfaol ta'lism usullari” T.:”O'qituvchi” 2012y. 48 b.

³ Tolipov O'.Q. Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. T.:”Fan” 2006 yil 23 bet.


insoniy manbalarni hisobga olgan holda bilimlarni o'zlashtirish va ularning o'zaro harakatini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usuli» deb ta'rif beradi.

Ta'lim texnologiyasi o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

1. Ta'lim texnologiyasi pedagogik jarayonni takomillashtirish, optimallashtirishga bo'lган ijtimoiy ehtiyojni qondirish omili sanaladi.
2. Ta'lim texnologiyasi didaktik hamda tarbiyaviy xarakterdagi, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali, mahoratli tarzda tashkil etish borasidagi nazariy hamda amaliy bilimlar majmui, metodologik fan sifatida namoyon bo'ladi.
3. Ta'lim texnologiyasi ta'lim-tarbiya jarayonining umumiyligi mohiyatini aks ettiruvshi yaxlit jarayondir.
4. Ta'lim texnologiyasi – yo'naltiruvchi vazifani bajaradi, ya'ni, u shaxsnini rivojlantirish, tarbiyalash, shakllantirishga xizmat qiladi.
5. Ta'lim texnologiyasi – shaxsiylik xususiyatiga ega bo'lib, yangi texnologiyani ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashga nisbatan yagona, qat'iy, me'yoriy (standart) talablar qo'yilmaydi. Har bir pedagog u faoliyat olib yuritayotgan ta'lim-tarbiya muhitining xususiyatlari, mavjud ichki va tashqi shart-sharoitlarini (7-jadval) inobatga olgan holda muayyan texnologik yondoshuvni amalga oshirish imkoniyatiga ega.
6. Ta'lim texnologiyasi o'zida ta'lim, tarbiya va shaxs taraqqiyoti (kamoloti) birligini ifoda etadi.

7-jadval

Pedagogik texnologiya tushunchasi 3 ko'rinishda namoyon bo'ladi



2. Protsessual - tavsifiy aspekt - ta’limda rejorashtirilgan natijalarga erishish uchun jarayonni tasvirlash, maqsad tarkib, uslub va vositalar majmuyidir.

3. Protsessual – amaliy aspekt – pedagogik jaryonning amalga oshishi, barcha pedagogik matadalogik (uslubiy), instrumental vositalarga amal qilish.

Ta’lim texnologiyasi – shaxsning bor sifatlarini shakllantirish uchun tashkiliy, maqsadga yo’naltirilgan va o’zaro bog’liq vosita, usul, jarayonlarning yig’indisini ifoda qiluvchi aniq yaxlitlikdir. Demak, aytish mumkinki, har qanday ta’lim texnologiyasi asosini pedagogik tizim tashkil etadi. Bunday ta’lim texnologiyani rejorashtirilgan samarasi uning qanday tizimlashtirilganligi va tuzilishiga bog’liq.

Ta’lim texnologiyasiga “ilg’or” yoki “zamonaviy” so’zining qo’shib ishlatalishi nazariyani olimlar va o’qituvchilarni bir qadar o’ylantirib qo’ydi, endilikda ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashga eskicha yondashish mumkin emasligini anglab yetmoqdalar. Shunday ekan ta’lim texnologiyasini qanday yangilash mumkin? E’tiborni yuqorida keltirilgan pedagogik tizim tuzilishiga qarataylik.

Ilg’or ta’lim texnologiyalaridan oqilona foydalanib, ilmiy dars o’tish, o’quvchilarni xayotda o’z o’rnini topishga, ongning shakllanishiga katta asos bo’lib xizmat qiladi. O’qituvchining ma’lum fan ilmini o’quvchilar ongiga yetkaza olish mahorati, shu o’quvchilarni bo’lg’usi xayot yo’llarini tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonini ilg’or pedagogik texnologiyalar bilan tashkil etish bu zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib hamda innovatsion fikrlab dars o’tish tushuniladi. Ammo innovatsion fikrlashga hamma pedagog ham tayyor emas. Ba’zilari psixologik yoki texnologik jihatdan tayyor bo’lmasa, ayrimlari aqliy yoki bilimi yetmasligi tufaylidir. Bu esa ta’lim jarayoniga ilg’or

pedagogik texnologiyalarni jalg qilishda qator muammolar mavjudligini va ushbu sohani chuqur tadqiq etishni taqozo qiladi.

Ta’limni tashkil etishga qo’yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o’quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko’nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, o’quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko’nikma hamda malakalar darajasini baholash o’qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyasi nazariyasining mazmuni va tarkibiy tuzilmasi (tuzilishi) ko’rib chiqilayotgan muammolar majmuida markaziy o’rinni egallaydi. Ta’lim texnologiyasining quyidagi muhim belgilarini ajratib ko’rsatish mumkin:

predmetlilik (ta’lim texnologiya nazariyasiga oid barcha atama, tushuncha va kategoriylar bir predmetli yoki muayyan sohaga ta’luqli bo’lishi kerak);

bir biriga moslik yoki to’liqlik (ta’lim texnologiya nazariyasining tili, uning asosiy tushunchalari, kategoriyalari, tamoyillari, modellari va hokazolar);


aniqlik (obyekt ma’nosini ikki aspektda: emperik va simantik jihatdan ochib beradi);

tekshiruvshanlik (nazariyaning real ob’ektga moslik darajasini tekshiradi);

haqqoniylilik (ta’lim texnologiya nazariyasining asosiy ta’kidlari ishonchli bo’lishi lozim);

tizimlilik (texnopedagogik qonunlarni tabaqlashtiruvchi aloqalari yordamida yagona tizimga birlashtirish).

Ilg'or pedagogik texnologiyalarning kontseptual asoslari.



Zamonaviy ta'lim texnologiya nazariyasi pedagogik faoliyat qonuniyatlarini va mavjud aloqalarni tasvirlar hamda izohlar vositasida ilmiy, asosli bayon etuvchi texno-pedagogik bilimlarning tizimli shaklidir⁴. Tarkibiy tuzilma tahlili zamonaviy pedagogik texnologiya funksiyasiga aniqlik kiritish va uning kontseptual modelini qurishga oid yondashuv variantini asoslash imkonini berdi. Kontseptual va mantiqiy til asosi, shuningdek, ilmiy texno-pedagogik bilimlarning asosiy salmog'ini ishlab chiqishda deduktiv yondashuv va pedagogik texnologiyalashtirish uchun esa induktiv yondashuvlardan foydalilaniladi. Ushbu asos pedagogik texnologiya matritsasi deb ataladi.

⁴O'.Q.Tolipov, M.Usmonboeva - T.: "Fan" 2006 35b.

Ta’lim texnologiyasi aniq pedagogik g’oya asosida ishlab chiqilib, uning negizini quyidagilar tashkil etadi:

- 1) muallifning aniqlangan metodologik, falsafiy yo’nalishi;
- 2) pedagogik, psixologik va ijtimoiy fanlar hamda pedagogik amaliyot-kontseptual asoslari.

Ta’lim tizimi boshqa barcha xorijiy mamlakatlar singari falsafa, psixologiya va pedagogikada insonparvarlik yo’nalishidagi tamoyillar asosida tuziladi. Pedagogikada bu yo’nalishning asosiy farq qiladigan jihat shundaki, ta’lim oluvchining o’zligi, uning shaxsi, mustaqil tanqidiy fikrlashini ongli rivojlanishiga aniq yo’naltirilgan, ularning xususiyat va imkoniyatlarini hisobga olgan (9-jadval) har bir ta’lim oluvchining mustaqil bilish faoliyatiga bog’liq hisoblanadi.

Pedagogik jarayonning mohiyati-o’qituvchi hamda o’quvchining birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog o’qituvchiga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Pedagogik yordamning asosiy mohiyati pedagogik jarayonning tavsifi, uning ma’lum maqsadga yo’naltirilganligi, shuningdek, shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalanadi.

Pedagog axborotni e’lon qilish, ko’rsatish, eslatish, tushuncha yoki maslahat berish, yo’naltirish, haqqoniylashtirish, kengashish, bartaraf etish, hamdardlik qilish, ilhomlantirish, qiziqish va hurmatni izhor qilish, talabchanlikni qo’llab-quvvatlash kabi ko’rinishlarda yordam beradi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari-majmuaviy integral (butun, uzviy bog’liq) tizim bo’lib, unda ta’lim maqsadlari asosida belgilangan ko’nikma va malakalar o’qituvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o’zlashtirish, ularda muayyan ma’naviy-ahloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo’naltirilgan pedagogik faoliyat elementlarining ma’lum tartibga solingan to’plami sifatida aks etadi.⁵


Bu o’rinda ta’lim maqsadlarining belgilanishi (kimga va nima uchun?), mazmunan tanlash va ishlab chiqish (nima?), ta’lim jarayonini tashkil qilish

⁵ Hakimova M. “Yangi pedagogik texnologiyalar” Uslubiy qo’llanma –Toshkent: TDIU, 2006. -200 b.

(qanday?), ta’lim metod va vositalarini belgilanishi (nimalar yordamida?), shuningdek, o’qituvchilar malaka darajasi (kim?), erishilgan natijalarni baholash metodi (qanda yo’l bilan?) inobatga olinishi lozim (9-jadval).

9-jadval

Ilg’or pedagogik texnologiyaning mexanizmi quyidagilarga asoslanadi



Ushbu mezonlarning majmuaviy tarzda qo'llanilishi ilg'or pelagogik ta’lim jarayonining mohiyati va texnologiyasini ochib beradi ya’ni “Boshlang’ish vaziyat”da ta’lim texnologiyasini loyihalashni boshlaguncha keng qamrovli axborotni olish mumkin:

Ta’lim oluvchilar, shu qatorda ularning:

- tayansh bilimlari (avval olgan bilimlar yig’indisi);
- o’quv - axborotli malakalar;
- o’qishni davom ettirish, kasbni egallash uchun kerakli o’quv muloqotli (o’zaro fikr almashinuvi bilan bog’liq) malakalar;
- kasbiy muhim sifatlar;

- shaxsning ijtimoiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan sifatlari;
- O'quv – moddiy manba:*
- o'quv materiallarining (kitoblar, qo'llanmalar, lug'atlar va boshqalar) mavjudligi;
 - ta'lim berish vositalarining borligi va holati;
 - jihozlangan xonalarning (ustaxona, tajriba o'tkazish xonalari va boshqalar) mavjudligi.


Boshlang'ish vaziyatni "aniqlash" maqsadni belgilash uchun muhim.

"Kechiktirilgan, o'zgaruvchan natija" esa moddiy va mas'ul (masalan, ishlab chiqarish sharoitidagi) faoliyat ma'lum sohaning borliq qonuniyatlari bilan bog'liq.
(10-jadval)

Shu bois ishlab chiqarish texnologiyalari texnologik tartibni qat'iy belgilanishi bilan xususiyatlanadi va shu bilan birga natijani belgilangan maqsadga mosligini doimo ta'minlaydi.

10-jadval

Ilg'or pedagogik texnologiyaning darajalari



Ilg'or pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil qilingan darslarga qo'yidagi didaktik talablar qo'yiladi:

1.Dars maqsadi va vazifalarining aniqligi hamda pedagogik jihatdan to'g'riliqi;

2.Darsning ta'limi, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvshanlik vazifalarining birligi va uzviyliqi;

3.O'qitishning yaxlit dars va uning ma'lum qismlari, vazifalari hamda mazmuniga muvofiq keladigan, o'quvchilarning bilish faoliylarini va mustaqil faoliyatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi ma'qul metodlarni tanlash;

4.Mashg'ulotlarning turli shakllari: jamoada, guruhli va yakka tartibdagi shakllarni ma'qul ravishda qo'shib olib borish;

5.O'qituvchining rahbarlik roli bilan o'quvchilar faol bilish faoliyatini birga olib borish.

6.Darslarning o'zaro uzviy va dealektik xususiyatiga ega bo'lishga erishish;

7.O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish;

8.Darsda o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash uchun qulay shart-sharoit yaratish;

9.Darslarni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish;

10.Darsda o'quvchi erkinligini ta'minlashga erishish.

Demak, aytish mumkinki, har qanday ilg'or pedagogik texnologiya asosini pedagogik tizim tashkil etadi. Bunday ta'lim texnologiyani rejalashtirilgan samarasi uning qanday tizimlashtirilganligi va tuzilishiga bog'liq.

Yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari joriy etilishi va ta'lim jarayoniga ta'lim texnologiyalarning, komp'yuter, yangi axborot texnologiyalari va texnik vositalarning qo'llanishi bilan dars ishlanmalariga qo'yilgan talablar ham o'zgarib bormoqda. Dars ishlanmalari uchun tayyor qoliplar yo'q. Chunki jonli dars jarayonini hech qanaqa qolipga solib bo'lmaydi. U turli xil sharoitlarda turlisha tuzilishi mumkin.

Shunday bo'lsa-da, kasb-hunar kollej va akademik litsey o'qituvchilariga dars ishlanmasini respublikamizning yetakchi pedagoglar quyidagicha tuzishlarini tavsiya etadi:⁶

1. Tashkiliy qism – salomlashish, davomatni tekshirish, zarur texnik vosita (videoproektor, kodoskop)larni darsga hozirlash;
2. Kichik guruhlarda ishlash - o'tgan dars mavzularini takrorlash; talabalar guruhini juftlik yoki kichik guruhlarga bo'lib dars o'tish va ta'lim texnologiyalari bilan tanishtirish, talabalarni baholash mezoni bilan tanishtirish; yangi dars maqsadini tushuntirish (dars maqsadi va yoritilishi lozim bo'lgan asosiy tushuncha va atamalar, oldindan slaydga taqdimot sifatida yozib qo'yilsa vaqt tejaladi);
3. Yangi mavzuni yoritish - dars materiallarini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ketma-ket ma'lum uzviylikda va mantiqiy bog'liqlikda, ko'rgazmali tarzda va turli xil o'qitish uslublaridan foydalangan holda berish;
4. Yangi mavzuni mustahkamlash - olingen nazariy bilimlarni yorqin misollarga qo'llash va turli xil topshiriqlarni bajarish asosida o'quvchilarda yangi mavzuga oid amaliy ko'nikmalarni hosil qilish va baholash; baholash uchun beriladigan savol va topshiriqlar aynan dars maqsadidan kelib chiqqan bo'lishi, unga erishilgan yoki yo'qligini aniqlashga qaratilgan bo'lishi lozim;
5. Darsga yakun yasash va baholash - darsning maqsadini yana bir bor eslatish va unga qanchalik erishganlikni o'quvchilar bilan birgalikda aniqlash; o'quvchilarning mavzu bo'yicha savollariga javob berish, darsning asosiy lahzalarini qayd qilish, o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasini aniqlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilarni tilga olish va baholash; (o'quvchilar bilimini baholashni butun dars davomida turli xil usullar yordamida ham bajarish mumkin; baholashdan maqsad o'quvchilarga faqat qandaydir ballarni qo'yib borishdan iborat emas, balki o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilib borishdan iborat bo'lib, kerak bo'lganda darsning borishiga o'zgartirishlar kiritish, tushunish qiyin bo'lgan joylarga qayta to'xtalish lozim bo'ladi);

⁶ Ziyomuhamedov. B."Pedagogik texnologiya" Toshkent :"Turon-Iqbol" 2006 yil 88 bet.

6. Uyga vazifa - o'tilgan mavzu bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni yanada mustahkamlashga yoki kelgusi dars uchun hozirlik ko'rishga qaratilgan, mustaqil bajarishga mo'ljallangan savol, mashq va topshiriqlar majmuasi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarning dars jarayonida qo'llanish tartibi (mexanizmi)ni ishlab chiqish uchun buxgalter-pedagog guruh va kichik guruhlari bilan ishlashni rejalashtirish kerak. Guruhda ishslashni rejalashtirish paytida nimalarga e'tibor berish kerak?

1.Vaqtga:

Qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish va rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun ixtiyorningizda qancha vaqt borligini aniqlab olish kerak.

2.Mashg'ulot maqsadini tanlashga:

Guruhlarda mashg'ulotlarni qay tarzda o'tkazishingizni aniqlab olish kerak. Eng yaxshi model - bu, o'quv guruhning barchasiga vazifani tushuntirishdan boshlanadi, so'ngra kichik guruhlarda ishslashdan va nihoyat, barcha o'quv guruhi ishtirokida yakun yasashdan iborat.

3.Ish joyini tanlashga va tayyorlashga:

Guruhlarda ishslash mos ravishdagi sharoitlarni talab qiladi. Bu ish qayerda bajarilishini aniqlab olish kerak .

Shunday auditoriya tanlash lozimki, unda, bir-biriga xalaqit bermagan holda bir necha kichik guruh ishslash imkoniyatiga ega bo'lsin. Ish joyining o'zini tayyorlab qo'yish ham nazarda turishi lozim: stollar quyidagi tartibda joylashtiriladi:

ta'lim oluvchilar auditoriyada erkin harakat qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak;

har bir guruh a'zolari, bir-birini ko'radigan va eshitadigan darajada joylashishlari kerak;

zarur o'quv qo'llanmalarga barcha oson etadigan bo'lishi kerak;

- vazifani tanlashga va uni ifodalashga;
- qo'yilgan ta'lim maqsadlariga mos keladigan vazifalarni tanlash kerak;

- biz, shuni ham yodda tutishimiz lozimki, o'quv guruhlarining tarkibi quyidagi turli xususiyatlarga ega o'quvchilardan iborat:

- qobiliyati bo'yicha;
- bilimlari va mahoratining darajasi bo'yicha;
- psixologik xususiyatlari bo'yicha: bir xillari faqat «qistroq» ostida o'qiydilar, boshqalari mustaqil ishlashni afzal ko'radilar, ayrimlari - faol, muloqot qilishga tayyor, ikkinchilari - passiv va o'z «qobig'i» ga o'ralgan va h.k;
- o'qish stili va bilim olish usuli bo'yicha: ba'zilari ma'ruzani eshitib, boshqalari esa kitob bilan ishlab o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtiriladilar va h.k.

Buni e'tiborga olgan holda, vazifani shunday ifoda qilish kerakki, u bir necha qismlarni o'z ichiga olsin. Bu esa o'z navbatida har bir ta'lim oluvchiga o'zining imkoniyatlari va qobiliyatlarini, bilimlari va mahoratlarini namoyon qilish, kuchli tomonlarini ko'rsatish imkonini beradi, uni bajarishda guruhning barcha a'zolarini ishtirokini ta'minlaydi.

Agar, darsda turli tarqatma materiallar ishlatsa, u ancha qiziqarli va samarali bo'ladi. Ularni tayyorlab qo'yish va unumli foydalanish kerak.

Shu bilan, guruhlar uchun yozma yo'riqnomalar, ta'lim oluvchilar uchun esa individual natijalar kartoshkalarini tayyorlab qo'yish kerak.

Vaholanki, ta'limiy faoliyat shaxsiy-sub'ektiv, xissiyotli xususiyatga ega bo'lib, u mualliflik, individual, ijodiy, tayyorgarliksiz, ya'ni jarayonni o'zida yaratish tabiatida ta'lim berishga asoslanadi, ta'lim beruvchining psixologik-kasbiy xususiyatlari hamda ta'lim oluvchilarni ko'p qirrali shaxsiy xususiyatlari bilan ifodalanadi. Shu bois, ta'lim texnologiyasida belgilangan tartibdan chetga chiqishga yo'l qo'yiladi, birgina va faqat shu texnologiyani amalga oshirishda sub'ekt tomonidan erishilgan ta'lim natijalari esa, *kechiktirilgan, o'zgaruvchan xususiyatga* ega bo'ladi.

Bugungi kunda ilg'or pedagogik texnologiyalar tatbiqiy asosini shaxsiy faoliyatli yondashuv, tanqidiy-ijodiy fikrlash, muammolarni hal etish, qaror qabul

qilish va jamoada hamkorlikni qaror toptirishga oid ta’lim texnologiyalarni ishlab chiqish ehtiyoji yuzaga kelmoqda.

Demak, o’qituvchi ta’lim texnologiyasini dars jarayoniga tatbiq etganda:⁷

- qanday o’qitish kerak?” degan savolga javob bermay, balki ahamiyatli qo’shimcha bo’lgan “*natijaviy qanday o’qitish va o’quv jarayonini qanday qilib eng maqbul tashkil etish kerak?*” degan savolga javob beradi;
- *aniq sharoitlardan kelib chiqqan va ma’lum natijaga yo’nalgan, aniq pedagogik g’oyaga* loyihalanadi;
- o’z natijalarini *qayta ishlab chiqarishi* bilan farqlanadi;
- ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchiga yo’naltirilgan darsning uslubiy ishlanmalaridan farqli o’laroq, ta’lim olishda ularning o’z faoliyatlari hisobiga yutuq ta’minlanishiga yo’naltiriladi;
- *tajriba o’tkazmaydi*: u aniq belgilangan natija bilan ish olib boradi;
- ajratilgan vaqt va mayjud sharoitlarda belgilangan maqsadlarni amalga oshirishda gumon hosil qilmaydigan *asoslangan o’qitish modeliga tayanadi*.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotning bozor tamoyillari keskinlashuvi sharoitida va jamiyatning demokratiyalashuvida ta’lim berishni texnologiyalashtirishning *dolzarbli* asoslanadi, o’quv fani bo’yicha ta’lim texnologiyasining tuzilishi bayon etiladi - ma’ruza, amaliy va seminar mashg’ulotlariga loyihalangan ta’lim berish texnologiyasi ishlab chiqiladi va kontseptual asoslari inobatga olinadi:

o’quv fanining dolzarbli, maqsad va vazifalari, auditoriya soatlarining umumiyligi hajmi va o’quv fanining namunaviy dasturiga muvofiq *ularning mavzular bo’yicha taqsimoti, ish turlari*;

- *o’quv fanining mazmuni*, o’quv fanining namunaviy dasturiga muvofiq o’quv fanining mavzu mazmuni bayon etiladi;

⁷ Yo’ldoshev J.”Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish”-T., 2008, 130b.

II bob. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda “Sarf xarajatlar va foyda” mavzusini o'qitishda grafik organayzerlaridan foydalanishni takomillashtiish yo'llari.

2.1 “Sarf xarajatlar va foyda” mavzusini o'qitishda grafik organayzerlaridan qo'llashning afzalliklari.

Grafikli organayzerlar (tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasi.

Grafik organayzerlar – o'qitish texnologiyasining muxum komponentlaridan xisoblanadi. Bu sodda va qulay usul bo'lib maxsus texnik jixozlar talab qilmaydi shu bilan bir qatorda kichik va katta bo'lgan malumotlarini eslab qolishini yengillashtiradi. Bu usul yordamida talabalarni bilish jarayonini taxlil qilish va ijodiy faoliyatini o'stirishga yordam beradi.

Ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushunchalar (voqeа va xodisalar, mavzular) o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqlikni o'rnatish usul va vositalari: Klaster, Venn diagrammasi, Insert, B/B/B jadvali

O'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, kommunikativ qobiliyatining o'sishiga, o'quvchilar o'rtasida hissiy aloqa o'rnatilishiga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, asosiysi o'qishga, fanga, o'zi tanlangan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish amaliyotda, o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadi. Ular juda xilmoxildir. Ushbu keltiriladigan zamonaviy metodlar va grafik organayzerlar o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, estetik tarbiya berishga, o'quvchini psixologik jihatdan o'rganishga, aqliy charchoqlikni olishga, o'quvchilarda yaratuvchanlik qobiliyatini shakllantirishga, psixologik iqlim yaratishga muammoni yechishga, etuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassislarga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. O'qitish jarayonida

qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir ta'lim texnologiyalarini tavsiflab, ba'zilarini o'tkazish tartibi to'g'risida metodik tavsiya berib o'taman: "Galereya" usulini o'tkazish bosqishlari

1-qadam. Masalani yoki topshiriq berish. O'qituvchi har bir guruhga ma'lum topshiriq beradi.

2-qadam. Har bir guruh o'z topshirig'i ustida ishlash. Topshiriqlar ustida ishlash kichik guruhlarda amalga oshiriladi (odatda 5-10 minut)

3-qadam. Kichik guruhlар qо'shni guruhlар topshirig'ini oxirigacha yetkazishga o'tish. Har bir kichik guruh o'z g'oyalarini yozgan katta varaqni olmasdan doira bo'y lab siljiydi. Variant sifatid guruh siljishi o'rniga doira bo'y lab ishlangan g'oyalar yozilgan katta varaqni o'zatish mumkin.

4-qadam. Qo'shni guruh topshirig'ini oxirigacha yetkazish. Har bir kichik guruh varaqqa yozilgan qo'shni guruh g'oyalarini o'rganadi; savol belgisi bilan rozi bo'l maganlarni belgilaydi; qo'shni guruh topshirig'i bo'yicha o'z g'oyalarini yozadi. 5-minutdan keyin guruhlар doira bo'y lab keyingi kichik guruhga o'tib, yana joylari bilan almashadi. Siljishlar soni kichik guruhlар (qo'yilgan topshirig'lar) soniga teng.

5-qadam. O'z joyiga qaytish. Topshirig'dan topshiriqqa doira bo'yicha o'tishlar har bir kichik guruh o'zining dastlabki topshirig'iga qaytish bilan tugallanadi.

6-qadam. Taqdimot va ish natijalari muhokamasi. Har bir guruh navbat bilan o'zlarining qog'oz varaqlarida yig'ilgan natijalar g'oyalarni tushuntirish va sharhlar bilan taqdim etadi.

"Xayoliy shakl yaratish" grafik organyzeri

O'quvchilar tomonidan ixtiyoriy xayoliy shakl yaratiladi. O'tilgan mavzular yuzasidan kalit so'z tanlanib, xayoliy shaklning markaziga yoziladi. Shaklning qolgan qismlariga ushbu kalit so'zga mos fikriy jarayonlar yoziladi. Baholashda tushunchalar miqdori va mohiyati, yaratilgan shakl murakkablik darajasi alohida e'tiborga olinadi. Ushbu usulni "Informatika" fanida qo'llaydigan bo'lsak, geometrik figuralar: sakkiz burshak, olti burshak, besh burshak, to'rtburshak,

trapetsiyadan yaratilgan ushbu shaklga “Komp’yuterning dasturiy ta’minoti” mavzusidan kalit so’z xamda ushbu mavzuni yoritadigan fikriy jarayonlarni yozamiz. “Xayoliy shakl yaratish” grafik organayzeridan darsning barcha qismlarida foydalansa bo’ladi. Bu grafik organayzeri psixologik iqlim yaratishga, o’quvchilar diqqatini darsga qaratishga, aqliy tarbiya bilan bir qatorda estetik tarbiya berishga, o’quvchilarning mavzuni qay darajada o’zlashtirganliklarini bilishga, o’quvchilarni fikrlashga, diqqatini bir joyga jamlashga xamda har bir o’quvchini individual baholashga yordam beradi.

Zukko haydovchi usuli

Bu interfaol usulni amaliyotda qo’llashdan maqsad, dars jarayonida o’quvchilarning mantiqiy fikrlashini tarkib toptirish va ularning bilim olishga qiziqtirish hisoblanadi. Bu usuldan barcha aniq va maxsus fan o’qituvchilari foydalansa bo’ladi. Dars jarayonida bu usuldan foydalanilganda kollej o’quvchilarining tanlagan kasblariga ham bog’lab ketilsa bo’ladi.

Zukko haydovchi usulining grafik organayzeri

Bu usulni grafik organayzerini men quyidagi tartib bo'yicha yaratdim: Jadvalga o’tilgan va yangi mavzu bo'yicha 20 ta termin ketma – ket shaklda joylashtirilgan. Masalan, informatika fanining asosiy elementi nima (axborot), bu elementni qayta ishlovchi vosita (kompyuter), kim tomonidan kiritiladi (foydalanuvchi), ikkalasi o’rtasidagi bog’lanish (interfeys) va Sohaga bog’lab mashina joylashtirilgan. Mashinadagi jihozni manzilga yetkazish uchun o’quvchidan jadvaldagi 20 ta terminni yo’l shaklida chizilib topilishi talab etiladi. O’quvchining to’g’ri bajarganligini tekshirish uchun Power Point dasturida so’zlarning ustiga yo’l shaklida chiziq qo’yilib chiqiladi va animatsiya (harakat) bilan manzilga etkaziladi. Avtomobilga ham harakatli animatsiya va avtomobil tovushi qo’yilib, chiziqlardan iborat yo’ldan avtomobil harakatlanib manzilga etib boradi. Ushbu ekranda chizilgan yo’lni o’quvchilar o’zlari qog’ozga chizgan yo’l bilan solishtiradilar va qanday bajarganliklarini bilib oladilar.

Shunday qilib o’rganilayotgan materialning samaradorligi uning bayon etilishiga, ko’rgazmaliligiga, o’quv-texnik vositalardan to’liq

foydalanimligiga, to'liq namoyish etishga bog'liqdir, buning natijasida talabalar o'zlashtirish ko'rsatgichi, eslab qolish va qabul qilishi yuqori bo'ladi.

Hayot faoliyatimizning barcha sohalari kabi oliy ta'lim tizimini ham modernizatsiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Innovatsion ta'lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash yoshlarimizni bugungi tez o'zgaruvchan ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omilidir. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirish uzlucksiz ta'lim tizimining tuzilmasi hamda mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajriba asosida takomillashtirishni ko'zda tutadi. Buning uchun, avvalo, barcha ta'lim muassasalaridagi dars jarayonlarini ilg'or, ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan zamonaviy uslubiyot bilan ta'minlash lozim. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmunini yangilash tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu bois, hozirgi davrda oliy ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarining kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va yutuqlardan keng foydalanish, ularni o'quv jarayoniga joriy qilib borish hamda rivojlangan davlatlarning kasbiy ta'lim tajribalarini mamlakatimiz ta'lim tizimiga tadbiq etish hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern – yangilangan, zamonaviy, tezkor o'sish) ta'lim jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi.

Hozirgi globallashuv jarayonlarida ta'limga innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati quyidagilar bilan o'lchanadi:

1. Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzlucksiz ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini ilg'or xorijiy

tajribalarni o'rganish, ta'limgardagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish;

2. Talaba-yoshlardagi ma'lumotlilik darajasi, intelektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyatga tatbiq etish;

3. Pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati.

Ta'limga innovatsion (inglizsha *innovation* - yangilik kiritish) yondashuv g'oyasi ta'lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo'nalganligi, ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so'nggi yutuqlari, ilg'or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilganligi bilan an'anaviy yondashuvdan farq qiladi. V.A.Slastenin pedagogik jarayonga innovatsion yondashishni o'qituvchi va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, o'qitish va tarbiyalashning maqsadi, mazmuni va shakliga yangilik kiritish bilan izohlaydi⁸.

Hozirgi paytda o'qitish jarayoniga quyidagi talablar qo'yilmoqda:

1. Sifat, ya'ni ta'limning belgilangan darajasini egallash;
2. Ommaviylik, ya'ni o'qitishning belgilangan darajasini bir vaqtning o'zida ko'p sonli ta'lim oluvchilar egallashlari lozim;
3. Samaradorlik, ya'ni o'qitishga sarf qilingan xarajatlar, albatta eng yuqori samara berishi lozim.
4. Ushbu vazifalarni yechish o'qitish jarayonini texnologiyalashtirishga, ilg'or o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va tadbiq etishga olib keladi.

Ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda pedagogik-psixologik fanlarning yutuqlarini

⁸ Slastenin V.A. i dr. Pedagogika. - M.: "Akademiya", 2002. 36 b

amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi. Bu esa o'z navbatida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma'ruza (muammoli ma'ruza, ma'ruza-seminar, virtual-texnologik ma'ruza, vizual ma'ruza, binar ma'ruza, kirish ma'ruzasi, ma'ruza-konferentsiya, axborotli ma'ruza, ma'ruza bahs-munozara, sharhlovshi ma'ruza, on-line ma'ruza) trening, videotrening, vebinarlar, internet konferentsiyalar, innovatsion o'qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi. Ushbu usullar talabalarning ijodiy faolligini oshirishda, iqtisodiy masalalarni hal qilishda, muammoni hal qilishning eng maqbul yo'llarini topishda yordam beradi. Shuningdek, iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash davlat ta'lim standartini amalga oshirishda amaliy vosita hisoblanadi.

Iqtisodiyot nazariyasi o'qituvchisi doimo o'zining pedagogik mahoratini oshirib, uni san'at darajasiga etkazib borishi kerak. O'z fikrini tushunarli, ko'rgazmali ifodalay bilishi, xorij mamlakatlari va mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi voqealarga o'z munosabatini bildirishi, ta'lim berishga ijodiy yondashuvni rivojlantirib borishi kerak.

O'qituvchining ijodiy yondashuvi talaba tomonidan iqtisodiyot nazariyasini o'rganishga ijodiy yondashuvining bevosita shartidir.

“Iqtisodiyot nazariyasi” fanining ma'ruza mashg'ulotlarida ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim etish usullari va vositalari:

Aqliy hujum:

Bu uslubda qo'yilgan savol, maummo, masala butun guruh bilan birlashtirilgan muhokama kilinadi. U talabalarni o'quv jarayonida mashg'ulotlarga faol qatnashishlarini ta'minlash va bayon qilish shog'ida boshqalarning ham fikrini jalg'ish, o'z fikrlarini aytishga yo'naltiruvchi metoddir.

Insert jadvali:

-mustaqil o'qish, ma'ruza tinglash jarayonida olinadigan ma'lumotlarni yaxlit bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi.

-oldindan olingan ma'lumotni yangisi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

V	+	-	?

Klaster (Klaster - tutam, bog'lash):

Ma'lumot xaritasini tuzish vositasi-barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish. Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Klasterni tuzish qoidasi:

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.

3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.



Venn diagrammasi — 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqposlash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi.

Tizimli fikrlash, solishtirish, taq qoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.



T-jadval:

Bitta kontseptsiya (ma'lumot)ning jihatiga o'zaro solishtirish (ha/yuk, ha/qarshi). Tanqidiy mushohadani rivojlantiradi. T – jadval qoidalari tanishiladi. Yakka tartibda rasmiylashtiriladi. Ajratilgan vaqt oralig'ida tartibda (juftlikda) to'ldiradi, uning shap tomoniga sabablari yoziladi, o'ng tomoniga esa shap tomonda ifoda qarama – qarshi g'oyalar, omillar va shu kabilar. Jadvallar juftlikda (guruhsida) taqqoslanishi to'ldirilishi. Barcha o'quv guruhi yagona T – tuzadi



Quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo'ysunuvchi “Qanday?”
diagrammasi

Muammo to'g'risida umumiy tasavvurlarni olish imkonini beruvchi, mantiqiy savollar zanjiri. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.



Ishlash qoidasi:

Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtafiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi.

Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirashalar "yo'ldoshlar" yozib qo'shiladi. Ularni "asosiy" so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu "yo'ldoshlarda" "kichik yo'ldoshlar" bo'lishi mumkin. YOzuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugaganisha davom etishi mumkin. Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

Toifali jadval:

Toifa - mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan belgi (umumiyligi);
-ajratilgan belgilarga ko'ra olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi;
-tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

BBB jadvali:

Bilaman, Bilishni xoxlayman, Bildim.

-mavzu, matn (mavzu, bo'lim) bo'yicha tadqiqot ishlari olib borish imkonini beradi;

-tizimli mulohaza qilish, tarkibga ajratish ko'nikmalarini beradi.

-tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

-jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida /kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

“Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo'naltiruvshi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiradilar.

Ma'ruzani tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar.

Mustaqil kichik guruhlarda jadvalning 3 bo'limni to'ldiradilar

Kontseptual jadval

O'rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashni ta'minlaydi.

Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kontseptual jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Taqqoslanadiganlarni aniqlaydilar, olib boriladigan taqqoslanishlar bo'yicha, xususiyatlarni ajratadilar.

Alovida yoki kichik guruhlarda kontseptual jadvalni to'ldiradilar.

- *Uzunlik bo'yicha* taqqoslanadigan (fikr, nazariyalar) joylashtiriladi;

- *Yotig'i bo'yicha* taqqoslanish bo'yicha olib boriladigan turli tavsiflar yoziladi.

Ish natijalarining taqdimoti.

Loyihalash metodi:

Kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalahshtirish bo'lib, loyiha, ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikr.

“Iqtisodiyot nazariyasi” fanining amaliyot mashg'ulotlarida muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari:

Bahs:

O'z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, xaqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

Muzokaralar:

-Eshitish bu aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlari almashinushi.

-Pinbord texnikasi:

-Muammoni hal etish bo'yicha g'oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Delfi texnikasi:

Muammoni hal etishning jamoali baholash va tanlash imkonini beradi.

6-6 texnikasi:

Qo'yilgan muammoni hal etish bo'yicha jamoa tomonidan ifodalangan variantlardan eng yaxshisi baholanadi va tanlanadi, keyin quyidagi harakatlar algoritmga muvofiq ma'lum belgilari bo'yicha guruhlanadi.

INTERNET sahifalari va tizimlaridan foydalanish, shu bilan birga, talabalarga ushbu fanni o'zlashtirishda mavjud o'quv adabiyotlaridan, elektron darslik, testlar majmuasi va boshqa manbalardan foydalanish tavsiya etiladi.

2.2. “Sarf xarajatlar va foyda” mavzusini o’tishda “Klaster” va “Venn diagrammasi” grafik organayzerlaridan foydalanish va uning tahlili.

Yangi pedagogik texnologiyalarni o’qitish jarayonida yuqori malakali, raqobatdosh kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy omilkorliklarini shakllantirish, metodik mahoratini ko’tarish va o’qituvchilarni yangi pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish zarur bo’lib qolmoqda.

Ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, samaradorligini tahlil qilish va natijalarni ko’rsatib berishni maqsad qilganligim bois «Sarf xarajatlar va foyda» mavzusi bo’yicha nazariy dars o’qitish texnologiyasi tuzib oldim.

«Sarf xarajatlar va foyda» mavzusi bo’yicha nazariy dars o’qitish texnologiyasi

<i>Vaqti:</i> 2 soat	<i>Talabalar soni:</i> 31 nafar
<i>O’quv mashg’ulotining shakli</i>	Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish bo’yicha o’quv mashg’ulot
<i>O’quv mashg’ulotining rejasi</i>	1. Ishlab chiqarish xarajatlar to‘g’risida tushuncha 2. Qisqa va uzoq muddatli xarajatlar 3. Foyda, daromad to‘g’risida tushuncha va uni hisoblash tartibi
<i>O’quv mashg’ulotining maqsadi</i>	Talabalarga “Sraf xarajatlar va foyda”ning mohiyati, ahamiyati asoslari va tartibini tushuntirish;
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none">- mavzu bo’yicha bilimlarni ongli ravishda o’zlashtirish va mustahkamlash;- mavzu bo’yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;	O’quv faoliyatining natijalari: Talaba: <ul style="list-style-type: none">- sarf xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirishni organadi;- sarf xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirish boyisha nazariy ko’nikma hosil

<ul style="list-style-type: none"> - muammoli vazifalarini yechish, ko'nikmalarini rivojlantirish, tezkor fikr va tahlil qilishni bilish, muqobil variantlarni ilgari surish va baholay olish, yakuniy xulosalarni shakllantirish. 	<p>qiladi;</p> <ul style="list-style-type: none"> - foydani hisoblash tartibi formulasini yozib misollar orqali tushunib oladi;
<i>Ta'lim usullari</i>	«Aqliy hujum», «Venn diagrammasi», «Klaster (tarmoqlash)» usuli
<i>Ta'limning tashkillashtirish shakli</i>	Kichik guruhlarda, yakka tartibda ishslash.
<i>Ta'lim vostalari</i>	Ma'ruza matni, marker, skosh, doska, bo'r, tarqatma materiallar, plakatlar.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik ta'minlangan, ommaviy ishslashga moslashtirilgan auditoriya.

Dars jarayonini yaxlit ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun darsning texnologik xaritasini ham tuzib oldim:

«Sarf varajatlar va foyda» mavzusi bo'yicha nazariy mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqishlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
O'qituvchi		Talabalar
1-bosqish. O'quv mashg'ulotiga kirish (5 daqiqa).	<p>1.1.Tashki1iy boshlanish. Salomlashish, guruh davomati va darsga tayyorgarligini tekshirish .</p> <p>1.2.O'quvchilarning davomati, ularni va auditoriyani mashg'ulotga tayyorligini tekshiradi</p>	Tinglaydilar Ishtirok etadilar.

	<p>2.1. O'tgan mashg'ulotning mavzusi, maqsadi, uni o'tkazish rejasи va rejelashtirilgan natijasini aytadi.</p> <p>2.2. Talabalarni 2 guruhga bo'lib joylashtiradi. Talabalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.</p> <p>2.3. O'tilgan mavzuni takrorlash uchun «Aqliy xujum» usulini qo'llaydi. Bunda savollar beriladi.</p> <p>2.4. Talabalarni faollashtirish maqsadida kartoshkalar orqali savol-javob qilib bellashuv uyushtiradi.</p> <p>2.5. Takrorlashni yakunlaydi va olingan ballarni qayd qilib qo'yadi.</p>	Tinglaydilar. Ishtirok etadilar. Mavzugaga javob beradilar. Savollarga javob beradilar.
3-bosqish. Asosiy qism (45 daqiqa).	<p>3.1. Yangi mavzuni e'lon qiladi va har bir reja bo'yicha maxsus usullar qo'llanilishi va e'tiborli bo'lishi lozimligi haqida ogohlantiradi va jarayon boshlanganini e'lon qiladi.</p> <p>3.2. O'qitish kichik guruhlarda ishslash, «Venn diagrammasi», «Klaster (tarmoqlash)», texnologiyalari asosida olib borilishini e'lon qiladi.</p> <p>3.3. Talabalarga tarqatma materiallar tarqatiladi, kichik guruhlarda ishslash va yakka tartibdagi faoliyatları natijalarini baholashni tashkil etadi, bilimlarni umumlashtiradi, vazifalarni bajarish jarayonida asosiy xulosalarga e'tibor qaratadi.</p>	Tinglaydilar. Har bir topshiriqlar bo'yicha guruhsardorlari fikrmushohadalarini taqdim qiladi va o'z fikrlarini himoya qiladilar. Vazifalar bo'yicha tarqatma materiallarni to'ldiradi va ommaviy shaklda himoya qiladi. Tinglaydilar.

	3.4. Yangi mavzu bayonini yakunlaydi va olingan ballarni qayd qilib qo'yadi.	
4-bosqish. Yakunlovshi qism (10 daqiqa).	<p>4.1. Dars yakunida o'quvchilar savollariga javob beradi, mashg'ulotlarga yakun yasaydi, xulosalarni umumlashtiradi, guruhda faol ishtirok etgan talabalarni baholaydi.</p> <p>4.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: mavzu bo'yicha qo'shimcha konspektlashtirish, mavzu yuzasidan «Krossvord» tuzib kelish.</p>	Eshitadilar. Aniqlaydilar. Topshiriqlarni yozib oladilar.

Tadqiqot ishimning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, bitiruv oldi amaliyotimni Samarqand bank kollejida o'tkazdim. Bitiruv oldi amaliyotimda darslarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etdim. Tajribalar Samarqand bank kollejning BX-106 guruhida o'tkazildi.

Darsning 1-bosqichi.

1. Men, darsni boshlashdan avval o'zimni tanishtirdim va o'quvchilar bilan salomlashdim, va auditorianing tayyorlik darajasini va shart-sharoitlarini nazorat qildim, kerakli buyumlar mavjudligini ko'zdan kechirdim, davomatni tekshirdim. Darsga 31 kishi qatnashgani ma'lum bo'ldi va jurnalga kerakli yozmalarни kiritib qo'ydim, va darsni tahlil qilish uchun Mikroiqtisodiyot fani o'qituvchisi Sh.M.Zaripov tashrif buyurdi. Dars davomida bir nechta yangi pedagogik texnologiyalar qo'llanilishi, ularni shartlarini tushunib to'g'ri bajarishlari uchun e'tiborli bo'lishlarini oldindan ogohlantirdim.


2. Dars berish jarayonida yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalardan, interaktiv metodlardan foydalanish yuqori samara beradi. Shu sababli ham nazariy mashg'ulotimda talabalarning bilim darajasini hisobga olgan holda, oldin berilgan ma'lumotlar asosida, yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan bog'lash maqsadida dars boshida takrorlash amalga oshirildi. Takrorlash ommaviy shaklda o'tadi.

Bunda «**Aqliy hujum**» usulini qo'lladim, bu esa mavzuni tushunishni yanada mustahkamlaydi, talabalarni faol harakat qilishga undaydi. O'tgan dars “Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish” mavzusini o'quvchilardan so'radim, mavzuga Sherova Shaxrizoda va guruh sardori Ro'ziboyeva Maxliyolar javob berib a'lo baho, Abhalimov Maruf va Amonov Donyorlar javob berib yaxshi baho olishdi. O'quvchilarni darsga qiziqtirish va faol bo'limgan o'quvchilarni baholash maqsadida kartoshka orqali savol-javob texnologiyasini qo'lladim. Bu texnologiya orqali Botirov Mirjaxon, Ma'sudova Maftuna, Mustafoyeva Odina, va Sadullayev Rustamlar qoniqarli baho olishdi. «**Aqliy hujum**» tugagash, o'quvchilar javoblarini to'pladim, faolligini e'tiborga oldim, ballarni qayd qilib qo'ydim. Qolgan talabalarni ham baholash maqsadida doskaga savollar tuzilgan «Kartoshka»larni yopishtirdim va o'quvchilarni 2 guruhga bo'lib o'tgan mavzu bo'yicha bellashuv uyuştirdim va natijani baholash maezoni jadvalida keltirib o'taman.

Demak, «Kartoshka» metodidan foydalanganda talabalarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan, talabalarda tezkor fikrlash faoliyati shakllanadi, bilimlarni kerakli paytda xotiradan tafakkurga keltira olish va bayon qilish, tezkor esga tushirish qobiliyati, ixtiyoriy xotira rivojlanadi.

Darsning 2-bosqichida Yangi mavzu: “Sarf xarajatlar va foyda”ni o'quvchilarga tushuntirish uchun mavzuning rejalarini yozdirdim. Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda “Mikroiqtisodiyot” fanidan “Sarf xarajatlar va foyda ” mavzusida dars o'tdim. Darsni “Aqliy hujum”, “Venn diagrammasi” texnologiyasi va “Klaster” texnologiyalaridan foydalanib tashkil qildim.

Klaster texnologiyasi



11-chizma. Umumiylar xarajatlarning turkumlanish klasteri.

Venn diagrammasi.



12-chizma. Ishlab chiqarish xarajatlari va muomala xarajatlarining tannarxda namoyon bo'lishi

Baholash mezonini o'quvchilar bevosita kuzatib bordilar. Baholash mezoni qo'yidagi ko'rinishda: bunda: a'lo – 1 ball, yaxshi – 0,8 ball, qoniqarli – 0,6.ball (4-jadval).

4-jadval


Baholash mezoni

Guruqlar	1-guruh	2-guruh
Dars jarayoni		
“ Aqliy hujum”	1	0,8
“Kartoshka orqali savol-javob” texnologiyasi”	1	1
“Klaster texnologiyasi ”	1	0,8
Tarkibidagi o'quvchilar faolligi	1	0,6
O'quvchilarning xulq odobi	1	1
Umumiy ball	5	4,2

Demak, 1-guruh a'lo hamda, 2-guruqlar yaxshi va baholandi. Bu 31 nafar talabandan 15 tasi a'lo (48.3%), 10 tasi yaxshi (32.2%), 6 tasi qoniqarli (19.3%) demakdir. Guruh to'liq baholandi.

Noan'anaviy ta'lim yangi zamonaviy pedagogik texnologiyani dars jarayonida qo'llash orqali talabalarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashishga va o'z fikrini guruh bilan tahlil qilib bir eshimga kelishsga o'rgatar ekan.

Yuqoridagi fikrlarni farqlash maqsadida 2-diagrammadan foydalanamiz:



2-diagramma. Yangi pedagogik texnologiyalar va an'anaviy ta'limning afzalliklari va kamshiliklari

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatgan bo'lsa, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali talabalar o'zlari egallayotgan bilimlarni o'zlari izlab topadilar, o'zlari mustaqil fikrlaydilar, hattoki qaror yoki xulosani ham o'zlari chiqaradilar. O'qituvchi esa faoliyatni boshqarib, kuzatib, yo'naltirib boradi.

Demak, biz ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etadigan bo'lsak, yangi pedagogik texnologiyaning asosida shaxs turadi, shuning uchun uni faqat ta'limga emas, bevosita tarbiya jarayonida qo'llash ham muhimdir. Pedagogik texnologiya deganda biz – o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrleshga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayonni shakllantirishimiz zarur. Pedagogik texnologiya o'quv jarayonining shunday loyihasiki, u bir kishi yoki biror ijodiy guruh tomonidan ishlab chiqiladi, undan barcha o'qituvchilar foydalana oladilar.

Men o'tkazgan dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash natijasida o'quvchilarda jarayonga tezkorlik bilan moslashib hamda yondoshib keta olish, dars davomida diqqatni bo'lmaslik, o'z fikrlarini dadillik bilan ochiq bayon eta olish va asosli himoya qila olish, avval o'rgangan bilimlarini kerakli vaqtda tezkorlik bilan xotiraga keltirish, teran va chuqur mulohaza yuritish, jamoa bilan hamkorlikda ishlay bilish, jamoadoshlarini himoya qila bilish kabi bir qancha ijobiy ko'nikma va qobiliyatlar, xususiyatlarni shakllantirishdek maqsadimning amalga oshishiga zamin yaratdi va yanada mustahkamlashga asosli xizmat qila oladi, deb o'ylayman. Men darsni kichik guruhlarda olib borganligim tufayli guruhni to'liq va haqqoniy baholashga erishdim. Bu esa, o'z navbatida, yangi metodlarning ustuvorligidan darak beradi.

O'rganishlar va o'tkazgan tadqiqotimdan kelib chiqib, ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishda va samaradorlikka erishishda qo'yidagilarga e'tibor qaratishni taklif etishim mumkin:

1. Darsda samaradorlikka erishish uchun darsni oldindan ketma-ketlikni ta'minlagan holda aniq loyihalashtirib olish;
2. O'quvchi passivligi oshishini hamda chalg'ishini ta'minlovchi asosiy unsur bo'lib hisoblangan dars davomida ketma-ketlikni buzilishiga yo'l qo'ymaslik, uzluksizlikka qat'iy rioya qilish;
3. Tuzilgan rejani maromiga va yakuniga yetkazishda batartib yondashish;
4. Loyiha asosida darsning yakuniga olib borishga ulgurish;
5. Har bir texnologiyaning o'z qonun-qoidasiga qat'iy rioya qilish;
6. Ilg'or tajribalarni o'rganib, ijodiy yondashgan holda faoliyatga tadbiq etish.
7. Har bir mavzu bo'yicha grafik organayzerlardan foydalanib dars o'tish.

2.3. Kasb-hunar kollejida xavfsiz ish sharoitini tashkil etish holati va majburiyatları

Tashkilotlarda, o'quv bilim yurtlarida va shuningdek kasb-hnar kollejlarida ham xavfsizlikni ta'minlash va ish sharoitini yaxshilash ma'muriyatning asosiy vazifasi sifatida mehnat qonunlari kodeksiga yozib qo'yilgan. Ma'muriyat tarkibiga rahbar xodimlar, ya'ni kasb-xunar kollejlarida, tashkilotchilik, ma'muriy-xo'jalik ishlarini amalga oshiruvchi, o'quv jarayonlarni tashkil qiluvchi, kollejda mehnat qilayotgan xodimlarni boshqaruvchi, moddiy mablag'larni taqsimot bilan ishlatalish va uni nazorat qilish ishlarini olib boruvchi shaxslar kiritiladi.

Ma'muriyat xodimlariga qo'yiladigan asosiy talab, ular davlat siyosatini yaxshi tushunishlari va uni amalga oshirishga harakat qilishlari, davlat va xalq manfaatlarini tushunib amalga oshirishlari, mehnat sharoiti tartibini saqlay bilishlari, ishchilarni mehnat intizomini saqlash va ishga rag'batlantirish, ta'lim sifatini oshirishi va darajasini bir necha o'n yil oldindan ko'ra biluvchi shaxs bo'lishlari kerak.

Ma'muriyat zimmasiga yuklatiladigan majburiyatlar asosan ishchilar bilan ma'muriyat o'rtasida tuziladigan mehnat bitimidan kelib chiqadi. Bu mehnat bitimini tuzish majburiyatini O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi bilan belgilangan. Bu qonuniyat sifatida quyidagicha taqlid qilinadi. Ishchi ma'lum mutaxassislik bo'yicha belgilangan ishni korxona ichki tartib-qoidalariga rioya qilgan holda bajarish, ma'muriyat esa mehnat qilish qonuniyatlariga asosan va jamoat bitimida ko'zda tutilgan ma'lum miqdordagi majburiyatlar mundarijasini o'z zimmasiga oladi.

Mehnat Kodeksida ko'zda tutilgan majburiyatlar quyidagilar⁹:

Har bir xodim va o'qituvchi uchun o'z mutaxassisligi va malakasiga qarab ma'lum bir o'quv xonasi, ish stoli va boshqalardan iborat ish joyi tashkil qilish;

Sog'lom va xavfsiz ish sharoitini tashkil qilish;

Sifatli o'quv jixozlari bilan ta'minlash;

⁹ Qurbanov J.M. « Hayot faoliyati xavfsizligi » uslubiy ko'rsatma. SamSI. 2010-yil

Mehnat intizomini, har taraflama mustahkamlash, ish sharotini kundankunga yaxshilab borishni ta'minlashga qaratilgan texnik jihozlar o'rnatish;

Mehnatni muhofaza qilishning nomenklatura chora-tadbirlarini amalga oshirish. Bundan tashqari, rahbar xodimlarga xizmat vazifalari ham yuklanadi. Bu vazifalar boshqarishi lozim bo'lgan lavozimi taqozo qiladigan tavsiyanomada belgilangan bo'ladi. Kollejlarda mehnatning sog'lom va xavfsiz sharoitlarini ta'minlash 13- moddada keltirilgan. Kollejdagi har bir ish joyidagi mehnat sharoiti mehnatini muhofaza qilish standartlari, qoida va me'yorlari talabalariga muvofiq bo'lishi lozim. Kollejda mehnatning sog'lom va xavfsiz sharoitlarini ta'minlash, ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillari ustidan nazorat o'rnatilishini tashkil etish va nazoratning natijalari to'g'risida mehnat jamoalarini o'z vaqtida xabardor qilish ma'muriyat zimmasiga yuklanadi. Kollejda mehnatning sog'lom va xavfsiz sharoitlarini ta'minlash yuzasidan ma'muriyat bilan xodimlarning o'zaro majburiyatlari jamoa shartnomasi yoki bitimida ko'zda tutiladi.

Intizom javobgarligi. Har bir o'quv yurti o'z ichki tartib-qoidalarni ishlab chiqadi. Bu tartib-qoidalarning barchasi sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash, jarayonlarni normada bajarishga qaratilgan. Talablarni bajarmaslik baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ishchi-xizmatshilarning tartib-qoidalarga amal qilmasligi ish rejimining buzilishiga, kasallik, baxtsiz hodisa, zaharlanish va boshqa hodisalarning sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ular uchun intizom javobgarligi ta'sis etilgan. Bu javobgarlik ishchilar uchun - ogohlantirish, xayfsan e'lon qilish, jiddiy xayfsan e'lon qilish, uch oy muddat bilan oyligi kam bo'lgan ishga o'tkazish yoki shu muddatga past razryad ishga o'tkazish, ishdan bo'shatish kabi tartibda amalga oshiriladi, Rahbar shaxslar uchun javobgarlik ogohlantirish, xayfsan e'lon qilish, bir yilgacha lavozimini pasaytirish, ishdan bo'shatish yo'li bilan olib boriladi. Xodimlar, bo'lim rahbarlari, kollej rahbari tomonidan intizom javobgarligiga tortilishi mumkin. Rahbar xodimlar esa yuqori rahbarlik xodimlari tomonidan intizom javobgarligiga tortilishi mumkin. Rahbar xodimlar jamoa bitimida ko'rsatilgan talablarni, yuqori tashkilot

buyruqlarini bajarmaganliklari va asossan xavfsizlik texnikasi, sanoat gigiyena sanitariyasi talab-qoidalariga amal qilinmaganligi uchun javobgarlikka tortiladilar. Ma'muriy javobgarlik quyidagi uch turda belgilanishi mumkin:

- Axloqiy harakterdagi javobgarlik (ogohlantirish, jamoat tartibidagi choralar).
- Mablag‘ va pul undirish, bunda jarima va musodara qilish usuli qo‘llaniladi.
- Tartib buzuvshining shaxsiga taaluqli bo‘lgan javobgarlik (ahloq tuzatishishlari, ma'muriy - qamoq jazosi, vazifasidan chetlatish).

Mehnat xavfsizligi qoida va normalarini buzgan ishchi va xizmatshilarga ma'muriy javobgarlik tartibida ogohlantirish, jamoat tartibidagi choralar va ma'lum miqdorda jarima to‘lash belgilanadi. Jarima va ogohlantirish bo‘ysunish tartibida rahbar xodimlar tomonidan emas, balki mehnatni muhofaza qilishning davlat nazorat organlari yoki shahar va tuman deputatlari kengashi ijroiya qo‘mitalari tomonidan tashkil qilingan komissiyalarning qarori bilan belgilanadi.

Jinoiy javobgarlik. Mehnatni muhofaza - qilish qoidalaring qo‘pol buzilishi natijasida og‘ir jarohatlanish yoki bir necha kishining og‘ir jarohatlanish sodir bo‘lsa yoki baxtsiz hodisa o‘lim bilan tugasa, qoidani buzishda ayblangan rahbar hodim jinoiy javobgarlikka tortiladi. Jinoiy javobgarlik rahbar xodimni vazifasidan chetlatish yoki ma'lum muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan belgilanadi. Shegaralangan moddiy javobgarlikda kollejga yetkazilgan zarar ma'muriyat buyrug‘iga asosan ishchi va xizmatshining oyligidan undirib olinadi. Bunda aybdor shaxsning roziligi bilan oyligidan (ushdan biridan oshmasligi sharti bilan) ushlab qolinadi.

To‘liq moddiy javobgarlik jinoyat sodir bo‘lgan taqdirda va aybdor jinoiy ish qilgan bo‘lsa, uni javobgarlikka tortish bilan bir qatorda sanoat korxonasiga keltirilgan moddiy zararni ham to‘liq qoplashga majbur qilinadi. Bunday javobgarlik qarorlarini tuman yoki shahar sudi organlari chiqaradi. Bu holda korxona ma'muriyati tomonidan aybdorning haqiqatdan ham aybdor ekanligini tasdiqlovshi hujjalalar ko‘rsatilishi kerak.

Hozirgi zamon fan va texnikasining o‘sishi yangidan-yangi texnologiya va mashina - mexanizmlarning joriy etilishi, ishlab chiqarishda ishlayotgan har bir

xodimning yuqori malakali, texnika qonunlarini tushunadigan va unga amal qiladigan bo‘lishlarini talab qiladi.

Instruktajlarni asosan to‘rt guruhgaga bo‘lib qarash mumkin:

- 1) kirish instruktaji;
- 2) ish joyidagi instuktaj;
- 3) vaqtı-vaqtı bilan o‘tkaziladigan instruktaj;
- 4) rejadan tashqari instruktaj (GOST 12.004-74 (MXSS)).

Kirish instruktaji. Ishga yangi kirayotganlar uchun o‘tkaziladi. Bu instruktajning asosiy maqsadi - ishga kirayotganlarning mehnatini muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi to‘g‘risida ma’lumot berish hisoblanadi. Kirish instruktaji yaxshi jihozlangan va ko‘rgazmali qurollar o‘rnatilgan mehnatni muhofaza qilish kabinetida, xavfsizlik texnikasi injeneri tomonidan o‘tkaziladi. Kirish instruktaji vaqtida ishga kirayotgan ishchi quyidagi holatlar bilan tanishtirilishi shart: O‘zbekiston Respublikasida mehnatni muhofaza qilish qonuniyatları asoslari, o‘quv yurtining ichki tartib qoidalari, xavfsizlik texnikasining umumiyligi talablari, ish joyini tashkil qilish, ishchiga topshirilgan mashina va mexanizmlarni saromjon va ozoda saqlash qoidalari, baxtsiz hodisalarini oldini olish qoidalari tushuntirish bunda asosiy diqqat e’tiborni har xil erituvshilar, kislotalar, yengil alanganuvshi suyuqliklar, siqilgan havo, elektr toki xavfi mavjud bo‘lgan vaziyatlarga qaratish kerak.

Mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va o‘kuv jarayonida qoida, norma va instruksiyalarining buzilishi natijasida vujudga kelgan baxtsiz hodisalar haqida ma’lumotlar berilishi kerak. Baxtsiz hodisa ro‘y berganda o‘zini qanday tutish haqida tushuncha beriladi, alkogolli ishimliklar baxtsiz hodisaga olib kelishi haqida aytib o‘tilishi shart. Kiyim bosh, maxsus oyoq kiyimi va shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanish qoidalari, sanitar-gigiyena sharoitlariga e’tibor berish, sanitar maishiy xonalardan foydalanish tartibi, baxtsiz hodisa ro‘y berganda, baxtsiz hodisaga ushragan kishiga vrash kelgunga qadar yordam ko‘rsatish usullari haqida ma’lumot beriladi.

Ish joyidagi instruktaj. Ish joyidagi instruktajda quyidagilar tushuntirilishi kerak: ishchining doimiy ishlash joyi, o'qituvchining doimiy ishlashi zarur bo'lgan axborot texnologiyalarning xususiyati ularning vazifasi va ulardan foydalanish qoidalari. Ishga tayyorlanish qoidalari, elektron vositalarning sozlanganligini tekshirish, yurgizish o'shirish asboblarining ishlashi, yerga ulanganligi, yordamshi va asosiy qurollarning mavjudligi. Shaxsiy muhofaza aslahalarining vazifalari va ulardan foydalanish qoidalari qo'yiladigan talablar. Instruktaj o'tkazayotganda avvalo odatdagি ish sharoitida ishchi o'zini qanday tutishi kerakligi haqida ma'lumot beriladi. Masalan avariya, yong'in va boshqa hollarda o'qituvchi o'zini qanday tutishi, tez harakat qilishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun mana shunday holatlarda qanday harakat qilish kerakligi haqida ham ma'lumot berilishi kerak. Ish joyidagi instruktajni texnik havfsizlik buyisha xodim o'tkazadi.

Rejadan tashqari instruktaj. Bu instruktaj texnologik jarayonning o'zgarishi, yangi elektron namoyish etish vositalari multimediyalardan foydalanish natijasida ish sharoitining o'zgarishi sababli foydalanuvshilarning xavfsizligi saqlash uchun bilimlari yetishmasligi sezilganda o'tkazilishi mumkin.

Xulosa

Hozirgi kunda hayotimizning turli jabhalarida ishlab chiqarish, ilm-fan hamda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiya va ilg’or pedagogik texnologiyalarning keng quloch yozib taraqqiy etilishi kuzatilmogda. Buning yaqqol aksi sifatida ayni paytda hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan qarorlarda isbotini ko’rishimiz mumkin. «O’zbekiston Respublikasi oliy ta’limni yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to’g’risida”¹⁰gi O’zbekiston Respublikasi Prizdentinig Qarori shular jumlasidandir.

Men “*Sarf xarajatlar va foyda*” mavzusini uqitishda grafik organayzerlardan foydalanishning afzalliklari (**Samarqand bank kolleji misolida**) mavzusida bitiruv malakaviy ishim yuzasidan tadqiqotlar olib borish jarayonida, shu xulosaga keldimki, ta’limda o’quv mashg’ulotlarning doimiy ravishda bir xilda takrorlanishi talabalarda loqaydlik, bilim olishga nisbatan mas’uliyatsizlik kayfiyatini hosil qiladi. Shu bois, ayni vaqtida bunday holatni oldini olishning eng samarali yo’li sifatida ta’lim muassasalari faoliyatiga noan’anaviy ta’lim usullarini, jumladan fanlarni o’qitishda grafikli tashkil etuvchilardan foydalanish va ilg’or pedagogik texnologiyalarni izchil, maqsadga muvofiq ravishda tatbiq etish e’tirof etilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishimning maqsadidan kelib chiqib, ta’lim jarayonida kasbiy mahoratni rivojlantirish yo’llari va holati o’rganib chiqildi, undagi yutuq va kamchiliklari aniqlandi. Fanlarni o’qitishda grafik organayzerlardan foydalanishning ilmiy-nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlari o’rganilib, uni qo’llashning amaliy takliflari ishlab chiqildi.

Ishning I bobi “*Sarf xarajatlar va foyda*” mavzusini o’qitishning nazariy asoslar deb nomланади. Bu bobda sarf xarajatlar va foyda to’g’risida umumiyl tushuncha va uning tavsiflanishi, sarf xarajatlar va foyda turlari va ularning

¹⁰ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017/2018 o’quv yilida O’zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o’qishga qabul qilish to’g’risida”gi farmoni 2017-yil 5-may

iqtisodiy mazmuni, iqtisodiy fanlarda grafik organayzerlardan foydalanishning uslubiy jihatlari bayon qilingan.

Bitiruv malakaviy ishimning II bobi “*Iqtisodiyot nazariyasi*” fanini o’qitishda “*Sarf xarajatlar va foyda*” mavzusini o’qitishda grafik organayzerlaridan foydalanishni takomillashtirish yo’llari deb nomlanadi. Bu bobda sarf xarajatlar va foyda mavzusini o’qitishda grafik organayzerlarini qo’llashning afzalliklari, sarf xarajatlar va foyda mavzusini o’tishda “Klaster” va “Venn diagrammasi” grafik organayzerlaridan foydalanish va uning tahlili, ta’lim texnologiyalarini joriy etishda xavfsizlikni ta’minalash holati va majburiyatlarining ahamiyati asoslab berilgan.

Bundan tashqari, ilg’or pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amaliy tadqiqotni tashkil etish va unda qo'llanilgan uslublar tahlili, mavzuni o’qitishda 3 ta ta’lim texnologiya usullaridan foydalangan holda dars o’tganligim, uning afzaliklari va kamchiliklari, uning samaradorligi, va tadqiqotning natijalari, pedagogik texnologiyalarni foydalanishda xavfsizlikni ta’minalash yoritib berilgan.

Tadqiqot ishimda pedagogik texnologiyalar nazariyasining mohiyati, uning shakllanishi hamda afzalliklari, ta’lim jarayonining istiqbolini ta’minalashdagi muhim o’rni va roli, shuningdek, noan’anaviy ta’lim usullarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish shartlari xususida tushuncha berishga harakat qildim.

O’rganishlar asosida, ta’lim tizimiga ilg’or pedagogik texnologiyalarni qo’llash bir qadar murakkab jarayon bo’lib, mazkur jarayonda mutaxassislik yo’nalishlari hamda ularning o’ziga xos xususiyatlarini inobatga olish taqozo etiladi. Tadqiqot ishini olib borish jarayonida o’qitishda grafik organayzerlarni tadbiq etish muammolari quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi:

- o’qitishda grafik organayzerlardan foydalanishning nazariyasi va uning asoslari borasida ma'lumotlar bera oluvchi manbalarning etarli emasligi;
- muayyan ta’lim muassasalarining faoliyat yo’nalishlariga hamda xususiyatlariga muvofiq ularning faoliyatiga pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish mexanizmining ishlab chiqilmaganligi;

- grafik organayzerlarning ta’lim tizimida o’quv-tarbiya jarayoniga tadbiq etish yo’lida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalarining yaxlit holda tahlil etilmaganligi hamda bu borada qo’lga kiritilgan tajribalarning ommalashtirilishi borasida sustkashlikning mavjudligi;

- akademik litsey va kasb-hunar kollej muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning ta’limda grafik organayzerlarni puxta o’zlashtirmaganliklari hamda o’z faoliyatlarida ulardan samarali foydalanish malakasi hamda tajribasiga ega emasliklari;

- pedagoglarni tayyorlash jarayonini texnologiyalashtirish borasida keng ko’lami amaliy harakatning tashkil etilmaganligi.

Qayd etib o’tilgan muammolarning bartaraf etilishi yetuk mutaxassislarni tayyorlash va kasbiy ko’nikma hamda malakalarni takomillashtirishda quyidagilarga e’tibor qaratishni taklif etish mumkin:

1) Tadqiqot ishi zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda o’quv jarayoniga grafik organayzerlardan foydalangan holda tashkil etildi va ularning samarasi yuqoriligiga yana bir bor amin bo’ldik, shu bois Respublikamizdagи barcha kasb-hunar kollej va akademik litseylarda fanlarni o’qitishda har bir dars jarayonida ilg’or pedagogik texnologiyalarni qo’llagan holda mashg’ulotlarni tashkil etishni tavsiya qilish mumkin;

2) Iqtisodchi pedagog o’qitishda ilg’or pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda grafik organayzerli tashkil etuvchilardan hamda o’qitishning interfaol, reproduktiv va muammoli izlanish, noan’anaviy ta’lim usullarini puxta o’zlashtirishi, o’z faoliyatlarida ulardan samarali foydalanish malakasi va tajribasiga ega bo’lishi mumkin;

3) Zamonaviy pedagogik texnologiyalar nazariyasi va uning asoslari borasida ma’lumotlar bera oluvchi manbalarni chop etish, ya’ni fanlarni o’qitishda “Klaster”, “Venn digrammasi”, va “Aqliy hujum” ta’lim usullari borasida ma’lumotlar bera oluvchi manbalar (o’quv qo’llanma, elektron darsliklar) ni chop etish;

- 4) Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash sohasida iqtisodchi pedagoglar uchun "o'quv markaz"larini, axborot vositalari va texnik vositalardan foydalanishni ta'minlash maqsadida kompyuter kurslarini tashkil etish hamda pedagog kadrlar o'zaro darslarga muntazam qatnashish va tajriba ortirishi;
- 5) Ta'lif shakliga mos holda ta'lif jarayonida xonalarning jihozlanishi, o'qitishda grafik organayzerlardan foydalanganda vaqt chegarasini standartlashtirishga hamda texnik jihozlar va elektr toklaridan foydalanilganda xavfsizlikni ta'minlash.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2012 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida" Qonuni. – T., 1997 y 21-bet.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" – T.: 1997 y 17 bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997 y, 9-son.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari va Farmoyishlari

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. Toskent shahri 17-fevral 2017 4-band.
6. Fanlar akademeyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillshtirishni chora tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 17-fevral 2017 yil.
7. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalarini faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 15-mart 2017 yil.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017/2018 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilish to'g'risida"gi farmoni 5-may 2017 yil.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

9. Shavkat Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". 2016 yil, Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 56-bet.
10. Shavkat Mirziyoyev "Tanjidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". 2017 yil, Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 104-bet.

IV. A.Karimov asarlari va ma'ruzalar

11. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajak yo'lida xizmat qilish – engoliy saodatdir. –T.: O'zbekiston, 2015, 304 b.

12. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: “O‘zbekiston”, 2011. 440 b.
13. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -T.: «Ma’naviyat», 2008. 176 b.

V. Asosiy foydanilgan adabiyotlar

14. Shoyoqubov Sh, Ayupov R. “Interfaol ta’lim usullari” T.: ”O’qituvchi” 2012y. 48 b.
15. Tolipov O’.Q. Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. T.:”Fan” 2006 yil 23 bet
16. O’.Q.Tolipov, M.Usmonboeva - T.:”Fan” 2006 35b.
17. Hakimova M. “Yangi pedagogik texnologiyalar” Uslubiy qo’llanma – Toshkent: TDIU, 2006. -200 b.
18. Ziyomuhamedov. B.”Pedagogik texnologiya” Toshkent :”Turon-Iqbol” 2006 yil 88 bet.
19. Yo’ldoshev J.”Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy qilish”-T., 2008, 130b.
20. Slastenin V.A. i dr. Pedagogika. - M.: «Akademiya», 2002. str.36
21. Qurbanov J.M. « Hayot faoliyati xavfsizligi” uslubiy ko’rsatma. SamlSI. 2010-yil
22. E.Egamberdiyev Mikroiqtisodiyot G’afur G’ulom nomidagi-nashriyot matba ijodiy uyi Toshkent-2005 206-2012, 220-228 bet
23. Iskandarov.E.A, D.J.Norboyeva “Pedagogika-Psixologiya” Samarqand. 2008 yil.
24. Yo’ldoshev J. “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy qilish”-T., 2008, 130b.
25. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. Nasaf. 2000. 118 b.

24. Xalikova.L.N., Sadinov.Q.P. “Iqtisodiy pedagogika” Ma’ruzalar matni. Samarqand.89bet.

27. Shodmonov Sh.Sh., G’afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma’ruzalar matni. – T.: «Fan va texnologiya» nashr, 2008. – 314 b.

28. Xodjaboev A.R., Baratov D.A. Uzluksiz ta’lim tizimida fanlararo aloqadorlikni ta’minalash mexanizmlari// DTS ishlab chiqish va tadbiq etish hamda kasbiy ta’limda uzviylikni ta’minalash muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining materiallari. -T.: O’MKHTRI. 2000. 84-87 b.

VI. Internet saytlari

29. www.gov.uz – O’zbekiston Respublikasi xukumat portali.

30. www.stat.uz - O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi rasmiy sayti.

31. www.google.uz